


Oila davrasida o'qish uchun

TARBIYA KITOBI I

7 dan 70 yoshgacha bo'lgan
barcha kitobxonlar uchun
HAYOT SABOQLARI



TARBIYA KITOBI

**7 dan 70 yoshgacha bo'lgan
barcha kitobxonlar uchun
HAYOT SABOQLARI**

Birinchi kitob

Toshkent – 2017

UO*K: 613.2-053.5

KBK: 74.200.51

T 23194

Tarbiya kitobi. K. 1: ibratli rivoyat va hikmatlar / nashrga tayyorlovchi: Abdumurod Tilavov. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2017. - 160 b.

ISBN 978-9943-387-91-1

UO*K: 613.2-053.5

KBK: 74.200.51

87.7

Mazkur kitob asrlar davomida sayqallanib kelgan rivoyat va hikoyatlar bilan bir qatorda ayni kunlarimiz haqida ham hikoya qiluvchi hayotiy voqealar asosida tayyorlandi. Ularni o'qigan va qalbiga joylagan aziz bolalarimiz ana shu hayotiy saboqlar orqali ezgulik olamiga qadam qo'yishlari, shubhasiz. Nafaqat bu olamga qadam qo'yadilar, balki atrofida gilarni ham yaxshilik deb atalmish ulug'vor yo'lga boshlaydilar. Zero, "Kitoblar mazmuni" rivoyatida ta'kidlanganidek, "Inson dunyoga yaxshilik qilish uchun kelar ekan".

Bobolarimizning purma'no hikmatlari har birimizning hayot yo'llarimizni yorituvchi o'chmas chiroq yanglig' nur sochaversin. Toki bu chiroq nurlaridan kelajak avlodlarimiz ham bahramand bo'lsinlar.

Taqrizchi va mas'ul muharrir:

Olimjon O'sarov

filologiya fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-387-91-1

© "Yurist-media markazi" nashriyoti, 2017.

ZULMATNING CHIROG‘I

Bir ayol qo‘shnisiga dugonasidan arz qilib, uni yomonladi. Undan qanday o‘chini olishni so‘radi. Qo‘shnisi unga dugonasini kechirishini va unga yaxshilik qilishini maslahat berdi. Haligi ayolning bunday adolatsizlikdan jahli chiqib ketdi. Shunda qo‘shni ayol dedi:

– Sizga bir rivoyat aytib beraman, o‘zingiz xulosa chiqaring. Qadim zamonda bir ayol bo‘lgan ekan. U bir kuni tun zulmatidan yorug‘ bo‘lishni, ayozdan esa iliq bo‘lishni so‘rabdi. Lekin tabiat qonunlari o‘zgarmabdi. Shunda haligi ayolning jahli chiqib: «Endi men sening zulmatingni yoritish uchun chiroq, ayozingni ilitish uchun olov yoqmayman», debdi.

Buni eshitib turgan boyagi ayol kulib:

– Chiroq va olovni yoqsa, o‘zi uchun yoqadi-ku, zulmat va ayozga bundan nima naf? – debdi.

– Unda siz nima uchun o‘sha ayolning ishini qilyapsiz? Atrofingizni befarqlik zulmati qoplaganda nima uchun mehr chirog‘ini yoqmaysiz, sizni o‘rab turgan odamlarning qalbini muz bosganda nima uchun ularni muruvvat olovi bilan ilitmaysiz?!

**EY FARZAND, BILGINKI, BU KABI ISHLARNI QILISH
AVVALO O‘ZIMIZ SO‘NGRAJAMIYAT UCHUN FOYDALIDIR.**





Qadim zamonda tog'lar bag'ridagi bir qishloqda ajoyib donishmand yashagan ekan. U juda nuroniy va oqil ekan. Turli joylardan uning oldiga odamlar maslahat uchun kelar, donishmandning ularga aytgan so'zlari esa doim foyda berar ekan. Hamqishloqlari uning umri davomida biron marta ham yolg'on gapirganini eslay olishmas ekan.

Bir kuni donishmand atrofidagi odamlarga g'amgin holatda "Ertaga quyosh chiqmaydi", debdi va kulbasiga kirib ketibdi. Qishloqda sarosima boshlanibdi. Ayrimlar o'zini o'ldirmoqchi, ayrimlar narsalarini yig'ishtirib qishloqdan chiqib ketmoqchi bo'libdi, ayrimlar esa bir joyga to'planib ibodat qila boshlabdi.

Ertasiga tong paytida qishloq ahli bu "dahshatli" voqeani birgalashib kutib olish uchun bir joyga to'planibdi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, quyosh chiqa boshlabdi. Hamma hayron bo'lib qolibdi. Birozdan so'ng hushlarini yig'ib, bu "yolg'on"ning sababini so'rash uchun donishmand cholning kulbasiga kelishibdi. Cholni chaqirishibdi, lekin hech bir sado bo'lmabdi. Donishmand shu kecha olamdan o'tgan ekan.

EY FARZAND, BILGINKI, HAYOTDA DONISHMANDLAR XUDDI QUYOSH KABIDIRLAR. INSONLAR HAYOTLARI DAVOMIDA ULARNING PAND-U NASIHATLARIDAN BAHRAMAND BO'LADILAR. DONISHMANDLARNING O'LIMI ESA QUYOSHNING BOTISHIGA O'XSHAYDI. ODAMLAR QORONG'ULIKDA YO'LLARINI TOPA OLMAGANLARIDEK, ILMSIZLIK ZULMATI HAM ULARNING ADASHIB KETISHLARIGA SABABCHI BO'LADI.



BIROVNING AYBI

Bir kishi donishmandning oldiga kelib arz qilibdi:

– Falonchi ko‘pchilik o‘rtasida mening kamchiligimni aytib izza qildi. Endi undan qanday qilib qasdimni olsam bo‘ladi?

Donishmand unga dedi:

– Agar u ko‘pchilik o‘rtasida sening aybingni aytgan bo‘lsa, demak, o‘zining ham aybini ochibdi. Endi sen o‘sha odamlar ichida uning yaxshi sifatlarini aytib maqtagin.

– Nima uchun, axir u meni yomonlagan bo‘lsa, men uni maqtaymanmi?

– Agar sen ham uni yomonlasang, unda o‘sha nodondan nima farqing qoladi? Agar maqtasang, balki qilgan ishidan uyalib, pushaymon bo‘lar.

EY FARZAND, HAR BIR ISHNING O‘ZING UCHUN FOYDALI TOMONINI QIDIR. AGAR HECH NIMA TOPA OLMAGANINGDA HAM BU ISHDAN FOYDA CHIQMASLIGINI BILIB OLASAN.





AQLLI ELCHI

Bir podshohning uch o'g'li bo'lgan ekan. Katta o'g'illari barvasta, kelishgan, alp qomat ekan. Kichigi esa nimjon va past bo'yli ekan. Shu sababli otasi uni xushlamas ekan. Lekin u ilimli va aqlli ekan.

Kunlarning birida qo'shni mamlakatning podshohi shahzodalardan birini elchi sifatida saroyiga taklif qilibdi. Podshoh kimni yuborish ustida bosh qotirib o'tirganda kichik o'g'li uni yuborishlarini so'rabdi. Uning bu taklifidan hamma kulibdi. Shunda shahzoda otasiga qarab shunday debdi: "Otajon, narsalarning qimmati ularning hajmi bilan o'lchanmaydi. Hammomni isitish uchun yoqiladigan g'o'lalar katta-katta, lekin ularning bir aravasini birgina tilla tangaga sotib olish mumkin. Marvarid donasi juda kichik, lekin uning bir misqoli uchun o'n tilla berishadi". Shahzodaning bu gapidan ota ham, saroy ahli ham mamnun bo'lishibdi va uni elchi sifatida qo'shni mamlakatga yuborishibdi.

EY FARZAND, KISHINING QADR-QIMMATI UNING BO'YI VA HUSNI BILANGINA O'LCHANMAYDI. UNI ILM, AQL VA FAROSAT AZIZ QILADI.

IBRAT KO'ZI

Bir kuni Luqmoni Hakimdan so'rashdi:

- Sen donishmandlikni kimdan o'rganding?
- Ko'rlardan. Ular atrofni ko'ra olmaganlari sababli ko'p qoqiladilar, to'siqlarga uchraydilar, yiqiladilar.

EY FARZAND, ATROFINGDAGILARNING BOSAYOTGAN QADAMLARIGA AQL KO'ZI BILAN RAZM SOL. SHUNDA HAYOT YO'LINGDA KAMROQ QOQILASAN.





OMAD KALITI

Bir kishi o'g'lining tabib bo'lishini orzu qilar ekan. Uni bir olimga shogirdlikka beribdi. Oradan bir yil o'tgach, xabar olgani borib qarasa, o'g'li o'choq boshida ovqat pishirib yurgan emish. Darsdan bo'sh paytda ustozining xizmatini qilayotgan bo'lsa kerak, deb indamay qaytibdi. Keyingi yil borsa, yana xuddi avvalgi holatni ko'ribdi. Bu tasodif bo'lsa kerak, deb yana indamabdi. Uchinchi yili borsa, yana o'sha ahvol. Endi buning sababini ustozdan so'rabdi. Olim unga shunday debdi: "O'g'lingizning ilmga hushi yo'q, lekin hunarga juda mohir. U yaxshi tabib bo'lmasa ham, juda yaxshi oshpaz bo'ldi". Bu gapdan otaning jahli chiqibdi, lekin olimning hurmatini saqlab indamabdi va o'g'lini uyiga olib ketibdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tibdi. O'sha mamlakatning podshohi kasal bo'lib, hech narsa yemay qo'yibdi. Kundan kunga darmoni ketib, holdan toyibdi. Mashhur tabiblarning ishtaha ochuvchi dorilari ham yordam bermabdi. Shunda haligi yigit kiyik go'shtiga o'zi biladigan dorivor giyohlardan qo'shib taom tayyorlabdi va shohga taqdim etibdi. Ovqat shohga ma'qul kelib, uni yebdi va buni tayyorlagan oshpazni chaqirtiribdi. Shu kundan boshlab uni saroyning bosh oshpazi etib tayinlabdi.

EY FARZAND, AGAR ILM OLISHGA RAG'BATING BO'LMASA, VAQTINGNI ZOYE QILMAY, HUNAR O'RGAN, CHUNKI "HUNAR, HUNARDAN UNAR", DEGAN DONO XALQIMIZ.



SHUKR QIL


Bir ayolning badavlat qo'shnisi bo'lib, uning xotini turli zeb-ziynatlar taqib, o'zini ko'z-ko'z qilishni yaxshi ko'rar ekan. Buni ko'rgan qo'shni ayolning unga havasi kelib, ertayu kech eridan shunday libos va taqinchoqlar olib berishini talab qilar ekan. Erining daromadi esa o'rtamiyona bo'lib, xotiniga boriga shukr qilib yashashni nasihat qilar ekan. Xotini uning nasihatiga quloq solganday bo'lar, lekin boyvuchcha qo'shnisini ko'rganda yana xarxasha qilishni boshlar ekan.

Bir kuni haligi ayolning eri bir do'sti bilan safarga o'tlanibdi. Xotini uyda yolg'iz o'tirmasligi uchun o'sha do'stining uyida uning xotini bilan birga yashab turishni maslahat beribdi. Xotini rozi bo'libdi. Safarga ketadigan kuni eri uyini qulflab, xotinini do'stining uyiga qo'yib ketibdi.

Do'stining daromadi unchalik yaxshi bo'lmay, ro'zg'orlari ham ancha nochor ekan. Buning ustiga u ayol ertayu kech farzandlari bilan to'n tikib tirikchilik qilar ekan. Yeyish-ichishdan siqilgan ayol uyiga ketay desa kalitni eri o'zi bilan olib ketgan ekan. Ularga boqimanda bo'lishdan uyalib, noiloj ishlariga qarasha boshlabdi. Do'stining ayoli ertalab tikilgan to'nni bozorga olib borib sotar, puliga non olib kelar, butun oila nonushtaga shu nonni kutib o'tirar ekan. Nonushta paytida nihoyatda ochiqqan haligi ayolga oddiy non juda ham mazali tuyular ekan. Kechqurun esa charchaganidan to'shagining yupqaligini ham his qilmay uxlab qolar ekan. Zebu ziynatlar haqida o'ylashga vaqti ham bo'lmas ekan.

Shu zaylda oradan bir qancha vaqt o'tibdi. Ayollarning erlari safardan qaytib, haligi ayol o'z uyiga ketibdi. Hovlisiga kirganda uyi unga juda qadrlı, ro'zg'ori esa badavlat bo'lib ko'rinibdi. Davlatmand qo'shnisini ko'rganda esa haligi nochor ayolni eslab, o'shanday yashamayotganiga shukr qila boshlabdi.

EY FARZAND, BILGINKI, ZEBU ZIYNAT VA QIMMATBAHO
LIBOSLARNING YO‘QLIGIGA CHIDASH MUMKIN, LEKIN
OCHLIKKA CHIDAB BO‘LMAYDI. SHUNING UCHUN
BOYLARGA HAVASING KELGANDA NOCHORLAR HAM
BORLIGINI ESLA.



YOMON MASLAHAT

Qadim zamonda bir saxiy boy bo'lgan ekan. Uning uyida bir qancha xizmatkorlari bo'lib, boy ularga yaxshi haq to'lar va bayramlarda sovg'a-salomlar ulashar ekan. Boyning ish yurituvchi bir maslahatchisi bo'lib, boy unga hammadan ko'p haq to'lar ekan. U ishini yaxshi bajarar, lekin hasadchi va ichi qora ekan. Ish yurituvchiga boyning xizmatchilarga katta haq to'lashi va sovg'alar ulashishi yoqmas ekan.

Bir kuni u bu ishlarga chek qo'ymoqchi bo'lib boyga shunday maslahat beribdi: "Boy ota, mana yoshingiz ham ancha katta bo'ldi, endi qarilikning g'amini yeb, ozgina zaxira to'plab qo'ysangiz bo'lar edi. Zaxira uchun mablag'ni xodimlaringizning maoshi va sovg'alarini kamaytirish hisobiga chiqaring".

Boy uning gapini eshitib o'ylanib qolibdi va javob berib: "To'g'ri aytasan, qarilikning zaxirasini tayyorlash payti keldi. Zaxiraga har oyda katta va yaxlit mablag' qo'yaman. O'sha mablag' sening maoshingdir. Maslahating uchun rahmat, bugundan boshlab bo'shsan", debdi.

EY FARZAND, BILGINKI, XALQIMIZ "BIROVGA CHUQUR QAZISANG, UNGA O'ZING YIQILASAN", DEB BEJIZ AYTMAGAN. ODAMLARNING ZIYONIGA BERILGAN MASLAHAT HECH QACHON EGASIGA YAXSHILIK KELTIRMAGAN.



AMAL AND IQTIS
VA SERVIS INST
XBOROT RESURS
153196

BEMINNAT NON

Qadim zamonda ikki aka-uka yashar ekan. Akasi xon saroyida qiziqchi-masxaraboz ekan. Ukasi esa hunarmand bo'lib, shuning orqasidan kun ko'rar ekan.

Bir kuni akasi ukasiga debdi: "Agar menga o'xshab xon saroyida qiziqchi bo'lib ishlaganingda qorningni to'yg'azish uchun mashaqqatli mehnat qilishga majbur bo'lmas eding".

Ukasi unga javoban: "Agar sen menga o'xshab o'z mehnating bilan kun ko'rganingda qorningni to'yg'azish uchun tahqirlash va kamsitishlardan qutulgan bo'lar eding", debdi.

EY FARZAND, INSONLARGA FOYDA KELTIRUVCHI HUNAR ORQALI TOPILGAN NON BARAKALI VA BEMINNAT BO'LADI.





ILMNING BOSHI ODOB

Bir olim odobning ko‘rinishlari haqida suhbatlashish uchun o‘z shogirdlarini uyiga chaqirdi. Bu suhbatga qarib qolgan ustozini ham taklif etdi.

Olim shogirdlariga munozarani boshlab turishni aytib, o‘zi taom tayyorlash uchun chiqib ketdi.

Olimning ustози biroz kechikib kelib, suhbatni bo‘lmay poygakka o‘tirdi. Yupun kiyingan qariyaga hech kim e‘tibor bermadi. Yig‘ilganlarning hammasi bir-birlarini kutmay, tovushlarini ko‘tarib o‘z fikrlarini aytishar edi. Shu orada xonaga olim kirib keldi. Ustози bilan ko‘rishib hol-ahvol so‘rashayotgan paytda shogirdlardan biri munozaraga sabab bo‘layotgan bir masala xususida uning fikrini so‘radi. Shunda olim: “Men bu xususda avval ustozimning fikrini bilmoqchiman”, deb qariyaga qaradi.

Qariya biroz o‘ylanib turib, past ovozda dedi: “Sizning munozarangiz oxiriga yetmaydi, chunki o‘zingizda yo‘q narsa ustida bahslashmoqdasiz. Bilinki, xumning ichi bo‘sh bo‘lganda uning ovozi baland chiqadi. Shunda ham agar xumni taqillatsangiz, ovoz chiqaradi, bo‘lmasa, jim turadi. Siz hali bo‘sh xum darajasiga ham yetmabsiz”.

**EY FARZAND, BILGINKI, BIROVNING GAPINI BO‘LISH
ENG YOMON ODAT. HAQIQATNI HIMOYA QILISH UCHUN
ESA BAQIRISH SHART EMAS.**





ISKANDAR ZULQARNAYN

Iskandar Zulqarnayndan so‘rashibdi: “Sen qanday qilib shuncha yurtlarni qo‘l ostingda saqlay olding?”

Iskandar javob beribdi: “Men ishg‘ol qilgan yurtlardagi odamlarni xafa qilmadim, ularga muhtoj bo‘lgan narsalarini berishga harakat qildim, qariyalar va ayollarning hurmatini saqladim, bolalarga mehr ko‘rsatdim, o‘tgan hukmdorlarning xatolarini gapirmadim”.

EY FARZAND, AGAR SEN HAYOTTA QOZOSI BILAN O‘ZGA YURLARDA BO‘LSANG, ISKANDAR ZULQARNAYN KABI YO‘L TUTGIN, HATTO DUSHMANLARING HAM DO‘STGA AYLANISHADI. BUNDAY MARTABAGA PUL VA KUCH BILAN YETIB BO‘LMAYDI.





HAQIQIY OLIM

Bir podshohning saroyiga maslahatchi kerak bo‘lib qolibdi. Shu o‘ringa munosib nomzodni topish uchun podshoh shahardagi barcha olimlarni saroyga chaqiribdi. Ularga bir qiyin masala yuzasidan fikrlarini aytishni taklif etibdi. Navbat bilan har bir olimning so‘zini eshitibdi. Olimlar iqtidori yetgancha o‘z fikrlarini bildirishibdi. Faqat bir olim qisqa qilib “Bilmayman”, debdi. Unga masala yuzasidan berilgan savollarga ham “Bilmagan narsam haqida gapirmayman”, deb javob beribdi.

Tanlov tugagach, podshoh o‘sha gapirishni xohlamagan olimni maslahatchi etib tayinlabdi. Atrofdagilar hayron bo‘lib buning sababini so‘rashibdi. Shunda podshoh: “Faqat haqiqiy olimgina “bilmayman” degan so‘zni ayta oladi”, debdi.

EY FARZAND, ILM YETMAGAN NARSA XUSUSIDA MAS’ULIYATNI HIS QILMAY, BILIB-BILMAY GAPIRISH QANCHADAN-QANCHA ODAMLARNING ADASHISHIGA SABAB BO‘LADI.





IBRATLI JAZO

Bir podshoh o'g'lini o'qitish va tarbiyalash uchun shahardan tashqaridagi ustozga beribdi. Muallim qattiqqo'l bo'lib, shahzodani qilgan xatolari uchun qattiq urishar va hatto urar ekan. Shahzoda chiday olmasdan bir kuni qochib saroyga kelibdi va otasiga arz qilib debdi: "Ota, muallim shogirdlar o'rtasida adolat qilmaydi. Bir xil aybimiz uchun meni jazolaydi, boshqa bolalarga esa tanbeh berib qo'ya qoladi".

Podshoh muallimni saroyga chaqirtirib, buning sababini so'rabdi. Muallim shahzodaning so'zlarini tasdiqlab shunday debdi: "Oddiy fuqarolarning yomon xulq va ayblari ko'zga tashlanmaydi. Lekin shunday odobsizlik shahzoda yoki podshoh tomonidan sodir etilsa, fuqaro ularga ergashib qolishi mumkin. O'g'lingizga nisbatan qattiqqo'l bo'lganimning sababi shu".

Bu gapni eshitgan shoh muallimga sovg'a-salomlar berib minnatdorchiligini bildiribdi. O'g'liga esa muallimning ruxsatisiz uyga qaytmaslikni tayinlabdi.

EY FARZAND, YOMON ODAT ODOBSIZLIK HISOB-LANADI, LEKIN EL NAZARIDAGI ODAMNING SHUNDAY ODOBSIZLIKNI QILISHI UNDA HAM YOMONDIR. AGAR KELAJAKDA BOSHLIQ YOKI MANSABDOR SHAXS BO'LISHGA INTILSANG, HOZIRDANOQ O'Z XULQING USTIDA QAYG'URISHING LOZIM.



Qadim zamonda bir bog‘bon bo‘lgan ekan. Uning yakka-yu yagona farzandi bo‘lib, juda tantiq ekan. Bog‘bon bolasiga tanbeh bersa, xotini o‘rtaga tushib: “Qo‘yavering, katta bo‘lsa, esi kirib qoladi”, der ekan.

Bog‘bon xotining gapi xato ekanini tushuntirish uchun shunday yo‘l tutibdi: bog‘ga ikkita bir xil mevali daraxt niholini yonma-yon ekibdi. Ularni bir vaqtda sug‘orib, bir xil o‘g‘it solib parvarishlabdi. Lekin nihollardan birining ortiqcha shoxlarini kesib, ikkinchisiga esa umuman tegmabdi.

Oradan uch yil o‘tibdi, nihollar daraxtga aylanib, meva beradigan payti kelibdi. Shoxlari kesib turilgan nihol baland va chiroyli daraxt bo‘lib, mevalari ham ko‘p ekan. Qaychi tegmagan niholning shoxlari esa har tomonga tarvaqaylab, qiyshiq bir daraxt bo‘libdi. Bir-ikki mevasi esa maydaligidan ko‘zga tashlanmas ekan.

Bog‘bon xotini chaqirib daraxtlarni ko‘rsatibdi va tushuntiribdi: “Mana bu daraxtning ortiqcha shoxlarini kesib turganim uchun butun kuchi asosiy shoxlariga borib, serhosil bo‘ldi. Bunisi esa o‘z holiga tashlab qo‘yganim uchun meva bermaydigan, foydasiz daraxtga aylandi. Uning ortiqcha shoxlarini endi kesgan bilan foydasi kam. To‘g‘ri parvarishni niholligida qilish kerak edi”.

EY FARZAND, OTA-ONANGNING SENG BERGAN TANBEHLARI XUDDI NIHOLNING ORTIQCHA SHOXLARINI KESIB TASHLAGANGA O‘XSHAYDI. SHUNDA SEN VAQTINGNI BEFOYDA NARSALARGA SARFLAMAY, KERAKLI ILM VA HUNAR O‘RGANSANG, KELAJAKDA JAMIYATGA FOYDALI ODAM BO‘LIB YETISHASAN.




FOYDALI ISH

Bir bolaning qari buvasi bo'lib, u kuni bilan hammaga "Ibodingni qil", deb aytaverar ekan. Bir kuni buvasi hovlidagi o'rindiqlarda mudrab o'tirganida nabirasi undan:

- Buva, uxlayapsizmi? – deb so'rabdi.
- Yo'q, ibodat qilyapman, – deb javob beribdi buvasi.
- Xurрак otganingizni o'zim eshitdim-ku, qanaqasiga ibodat qilyapsiz?! – deb kulibdi nabirasi.
- Men ibodatga kuch yig'ish uchun uxlayapman, demak, ibodat qilyapman.
- Unda men nima qilyapman?
- Sen ham ibodat qilyapsan. Bilmagan narsani so'rab bilish ham ibodat qilish hisoblanadi.
- Oyim, dadam, boshqalar nima qilishyapti?
- Dadang ishda, oying ovqat qilyapti, akang maktabda, demak, ular ham ibodat qilishyapti. Umuman, ko'zing ko'rib turgan narsaning hammasi ibodat qiladi.
- Jonsiz narsalar hammi? – Hayron bo'lib so'rabdi nabira.
- Odamlar, jonivorlar va jonsiz narsalarning hammasi zimmalaridagi vazifalarini bajarishlari ibodat hisoblanadi.

EY FARZAND, BILGINKI, JAMIYAT UCHUN FOYDALI BO'LGAN HAR BIR ISHNI SIDQIDILDAN BAJARISH IBODAT HISOBLANADI. AKSINCHA, ZIMMASIDAGI VAZIFAGA E'TIBORSIZ BO'LIB, QO'L UCHIDA BAJARISH ESA ATROFDAGILARNING HAQQIGA XIYONAT QILISH DEMAKDIR. AGAR JAMIYATDAGI INSONLARNING HAMMASI SHU QOIDAGA RIOYA QILIB YASHASALAR, TURMUSH O'Z-O'ZIDAN YAXSHILANIB BORAVERADI.



IKKI XIL BAXT

Bir donishmand aytibdi: “Baxt ikki xil bo‘ladi: xayrixoh baxt va yovuz baxt. Xayrixoh baxt egasi sabrli, mehmondo‘st, shukr qiluvchi, kamgap, hasad qilmaydigan, saxiy va rahmdil bo‘ladi. Yovuz baxt egasi esa yulg‘ich, besabr, sergap, ayyor, berahm, qizg‘anchiq va manfaatparast bo‘ladi”.

EY FARZAND, TOKI TIRIK EKANSAN, DEMAK BAXTLISAN. BAXTINGNING QANDAY EKANINI YUQORIDAGI SIFATLARGA QARAB O‘ZING AJRATIB OL.





BAXILNING YOMONLIGI

Bir mahallada saxiy va badavlat odam yashar ekan. U doim odamlarga yaxshilik qilar va ularni tez-tez uyiga mehmonga chaqirib turar ekan. Mahalla ahli uning hurmatini joyiga qo‘yar ekan. Lekin shu mahallada bir baxil kishi bo‘lib, u o‘sha odamni yomon ko‘rar, orqasidan ig‘vo qilar, paytini topsa, unga ziyon yetkazar ekan. Haligi saxiy odam qachon ziyofat bersa, o‘sha baxilni ham chaqirar va izzat-ikrom qilar ekan. Haligi odam ziyofatga kelib, saxiyning osh-nonini yeb, tashqariga chiqib yana uni yomonlar ekan. Mahalla ahli uning bu ishidan hayron bo‘lar ekan.

Bir kuni shu mahalladagi bir odam saxiydan so‘rabdi:

– Siz falonchining o‘zingizga dushmanligini bilmaysizmi, nega uni uyingizga chaqirib mehmon qilasiz?

– Bilaman, lekin, birinchidan, qo‘shnichilik haqqi-hurmatidan chaqirsam, ikkinchidan, bir kun insofga kelib qolar, deb umid qilaman. Qolaversa, uning gaplarini eshitib yana nimani rejalashtirayotganini bilib olaman, – debdi.


EY FARZAND, “DUSHMAN KICKINA, KUCHSIZ, QO‘LIDAN NIMA HAM KELARDI?!” DEB G‘AFLATDA QOLMA. UNING NIYATIDAN DOIM XABARDOR BO‘LIB TUR. SHUNDA UNI YENGISHING OSON KECHADI.



Qadim zamonda bir podshoh qo‘l ostidagi vazir va maslahatchilarining unga nisbatan sodiqligi va muhabbatini sinab ko‘rmoqchi bo‘libdi. Buni amalga oshirish uchun o‘zini kasallikka solibdi. Tabibni chaqirib yolg‘iz gaplashibdi va suhbatlarini sir tutishni buyuribdi. Tabib ketgach, a‘yonlarini chaqirib: “Tabib menga “Kasalingiz og‘ir, lekin tuzatsa bo‘ladi. Buning uchun siz uch kun davomida kun yorishmasidan avval sut to‘ldirilgan kichkina hovuzda cho‘milishingiz kerak bo‘ladi”, dedi. Sizlarga farmonim shunday: har biringiz bugun tunda bir kosadan sut olib kelib, hovuzga quyasiz. Bu ishni uch kun bajarasiz”, debdi.

A‘yonlarning har biri turli sabablarga ko‘ra shu tunda sut topa olishmabdi va “Bir hovuz sutning ichida men olib borgan suv bilinmay ketadi, qorong‘uda sut olib bormaganimni hech kim sezmaydi”, deb o‘ylab, bir kosadan suv olib borib hovuzga quyishibdi. Podshoh kun yorishganda kelib hovuzga qarabdi, qarasa, unda sutdan asar ham yo‘q, faqat suv ekan.

EY FARZAND, AGAR BIROR JAMOATDA ISHLASANG, ATROFINGDAGILARNING YENGIL-YELPI HARAKATLARI TUFAYLI ISHNING NATIJASI YAXSHI BO‘LMASLIGIGA KO‘ZING YETSA HAM, O‘Z ISHINGNI HALOL BAJAR. SHUNDA KATTA ISROFGA HISSA QO‘SHMAGANINGDAN VIJDONING OLDIDA XOTIRJAM BO‘LASAN.





CHIN DO‘ST

Bir odamning tongda ajali yetib, jonini olish uchun oldiga Azroil kelibdi va unga kuni bitganini aytibdi. Soppa-sog‘yurgan haligi odam hali o‘linga tayyor emasligini, bitirib ulgurmagan ishlari borligini aytib, uch kunga muhlat so‘rabdi. Shunda Azroil: “Yaratgan sening oldingga yuborayotgan paytda shuni oldindan bilib meni ogohlantirgan edi. Uning izni bilan senga uch kun muhlat beraman, lekin bir shart bilan. Shart shuki, bugun barcha do‘stlaringni aylanib chiqasan, agar ularning ichida sening yashashingni chin dildan xohlaydigan va o‘limingdan qattiq qayg‘uradigani topilsa, sen aytgan muhlatni beraman. Topilmasa, Yaratganning amri bilan kechqurun joningni olaman”, debdi va ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

O‘sha odamni shu kuni qabrga qo‘yishibdi.

EY FARZAND, BILGINKI, KIMNING TIRIKLIGI HECH KIMNI XURSAND QILMAGAN BO‘LSA, O‘LIMI HAM HECH KIMGA TASHVISH TUG‘DIRMAYDI. ATROFINGDAGI DO‘STLARINGGA QARA, ULAR BILAN MUNOSABATING QANDAY? DO‘ST BO‘LISH OSON, LEKIN DO‘STLIKNI USHLAB TURISH QIYIN. DO‘STI UCHUN BIROR NARSASIDAN KECHGAN ODAMNING CHIN DO‘STI BO‘LADI. FAQAT O‘ZINI O‘YLAYDIGAN ODAM YUQORIDAGI KABI AHVOLGA TUSHADI.





HARAKATDA BARAKAT

Bir o'rmonga o't ketibdi. Jonivorlarning bir qismi kuchlari yetgan narsa bilan suv tashib, o'tni o'chirmoqchi bo'lishibdi. Ikkinchi qismi esa bundan hech narsa chiqmaydi deb, chetroqqa chiqib tomosha qilib turishibdi.

Bir chumoli o'tni o'chirish uchun hovuchida suv olib ketayotgan ekan. Buni ko'rgan qarg'a uning ustidan kulib debdi: "Mana shu suving bilan olovni o'chiraman, deb o'ylayapsanmi?"

Chumoli unga javob beribdi: "Bilaman, bu suv bilan o'tni o'chirib bo'lmaydi. Lekin men bu harakatim bilan kim tomonda turganimni bilaman".

EY FARZAND, BILGINKI, TO'QILGAN MATODA HAR BIR IPNING O'Z O'RNI BOR. MATONING QAYSI YERIDAGI IP CHIRIGAN BO'LSA, MATO SHU YERDAN BOSHLAB YIRTIлади. HAYOT ZANJIRIDA HAM XUDDI SHUNDAY: HAR BIR ODAMNING O'Z O'RNI VA VAZIFASI BOR.





YAXSHI NIYAT

Bir odam qattiq kasal bo'lib shifoxonaga yotibdi. Shifokorlarning berayotgan dorilari foyda berishini so'rab erta-yu kech Tangriga yolvorib duo qilibdi. Shu kasal bir kuni kechasi tush ko'ribdi. Tushida o'zi va palatadoshlari bir quduq ichidagi suvga cho'kayotgan emishlar. Yordamga chaqirsalar ham, hech kim kelmas emish. Bir payt yuqoridan ingichka arqon tusha boshlabdi. Hamma unga qarab talpinibdi. Lekin arqon qimirlab hech kimning qo'liga ilinmay, haligi odamning qo'liga tushibdi. Ko'rinishidan o'rgimchak ipidek ingichka arqon odam ko'taradigan darajada pishiq ekan. Haligi odam jon holatda arqonga osilib yuqoriga tirmasha boshlabdi, lekin arqonning uzilib ketishidan xavotirga tushibdi. Shu payt xuddi uning xayolidagiga javoban yuqoridan ovoz kelibdi: "Qo'rqma, ip uzilmaydi". "Sen kimsan?" so'rabdi haligi odam. "Men sen bir paytlar suvdan chiqarib olgan o'rgimchakman. O'sha yaxshiliging uchun bugun senga yaxshilik qilyapman", debdi. Haligi odam bunday ishlarni har doim qilib yurgani uchun bu o'rgimchakni qachon, qayerda qutqarganini eslay olmabdi. Shu payt arqon qattiq silkina boshlabdi. Odam pastga qarasa, qolganlar ham arqonga osilib yuqoriga tirmashib chiqishayotgan ekan. Buni ko'rib: "Arqon ingichka bo'lsa, hammamizni ko'tara olmay, uzilib ketishi mumkin. Nega ular mening arqonimga osilishadi?! Axir o'rgimchak uni men uchun tashladi-ku", deb o'ylabdi. Shu narsani o'ylagan zahoti arqon yuqoridan "chirt" etib uzilib, hammalari pastga qulab tushishibdi.


Haligi odam o'z ovozidan uyg'onib ketibdi. Yarim tun, palatadoshlari uxlab yotishibdi. Ko'rgan tushini eslabdi va u haqda o'ylay boshlabdi. Umri davomida jonivor va hasharotlarga yaxshilik qilib kelgan odam palatadoshlarini o'ylamay, faqat o'zi uchun shifo so'rayotganini eslab, o'zidan uyalibdi.



Shu tun tongga qadar ko‘z yummay, iltijo qilib barcha dard bergan bandalaringga shifosini ham ber, shularning qatorida palatadoshlarim va mening ham shu yerdan sog‘-salomat chiqib ketishimizni nasib et”, deb yolvoribdi.

Ertalab shifokor odatdagidek kasallarni ko‘zdan kechirayotib, unga: “Sizning topshirgan analizlaringizning javobi yaxshi chiqdi. Uch-to‘rt kundan so‘ng uyga javob beramiz”, debdi.

EY FARZAND, O‘ZING UCHUN NIMAIKI YAXSHILIKLARNI ORZU QILSANG, ATROFINGDAGILARGA HAM SHU NARSALARNING NASIB ETISHINI XOHLAGIN.




UMIDSIZLIK OFATI

Ikki qurbaqa aylanib yurib, sut solingan ko‘zachaga tushib qolishdi. Undan chiqmoqchi bo‘lib rosa harakat qilishdi, lekin chiqa olishmadi. Shunda bir qurbaqa boshqasiga: “Og‘ayni, men charchadim, baribir chiqa olmaymiz, harakatlarimiz befoyda”, dedi. “Unday dema, toki tirik ekanmiz, harakat qilishimiz kerak, balki chiqib olarmiz”, dedi sherigi. “Sen harakat qilsang-qilaver, mening umidim qolmadi”, dedi va cho‘kib ketibdi. Ikkinchi qurbaqa esa tinmay oyoqlarini tipirchilatib harakat qilaverdi. Birozdan keyin sutning yog‘i sirtiga chiqib, sariyog‘ga aylana boshladi. Yana birozdan keyin esa qurbaqa sakrab ko‘zachadan chiqib ketdi. U umidsizlikka tushib cho‘kib ketgan do‘stiga achindi.

EY FARZAND, BILGINKI, UMIDSIZLIK HAR BIR AMALNING KUSHANDASIDIR.





ILMSIZLIK ZULMATI

Qadim zamonda o'qish va yozishni yomon ko'radigan bir bola bo'lgan ekan. U turli bahonalar bilan maktabga bormas, borganda ham berilgan vazifalarni bajarmay, faqat yomon baho olar ekan. Ota-onasining tanbehlariga quloq solmay, "Men katta bo'lsam, cho'pon bo'laman, qo'y boqish uchun o'qish kerak emas", der ekan.

Bir kuni uylari yaqinidagi o'tloqdan qo'ziqorin terib kelish uchun chiqibdi. Qo'ziqorinlarni terib yurib, uylaridan ancha uzoqlashib ketibdi. Yurib-yurib uncha chuqur bo'lmagan bir daryo sohiliga etibdi. Narigi sohildan ham qo'ziqorin termoqchi bo'lib ko'prik qidiribdi. Yaqin atrofdagi ko'prik oldiga borib qarasa, uning chetidagi taxtachaga nimadir yozib qo'yilgan ekan. Bola yozuvni o'qiy olmabdi va to'g'ri narigi sohilga qarab yuribdi. Ko'prikning o'rtasiga kelganda u sinib, bola suvga tushib ketibdi. Ovozining boricha yordamga chaqiribdi. Shu orada qo'ylarini o'tlatib yurgan bir cho'pon kaltagini uzatib, bolani suvdan chiqarib olibdi va: "Nega bu ko'prikdan o'tding?! Ko'prik ustidagi "Bu ko'prikdan yurmang, nariroqda yangi ko'prik bor", degan yozuvni ko'rmadingmi?" deb so'rabdi. Bola unga javoban: "Ko'rdim, lekin o'qiy olmadim, chunki men o'qishni bilmayman", debdi. Shunda cho'pon unga: "E bolam, hatto qo'y boqish uchun ham o'qish kerak", debdi.

EY FARZAND, FARAZ QIL, AGAR CHO'PON O'QISHNI BILMAGANIDA O'ZINI HAM, QO'YLARINI HAM HALOK QILGAN BO'LAR EDI.




BAXTLI ODAM

Qadim zamonda bir podshoh kasal bo‘lib qolibdi. Uni davolash uchun butun dunyodan tabiblarni chaqirishibdi, lekin hech biri podshohni davolay olmabdi. Shunda ular maslahat qilib bir qarorga kelishibdi: agar baxtli odamni topib, uning ko‘ylagi podshohga kiydirilsa, u tuzaladi. Baxtli odamni topish uchun dunyoning hamma tomoniga choparlar jo‘natilibdi. Lekin hech kim “Men baxtliman”, degan odamni topa olmabdi. Kimdir boy, lekin kasal, yana kimdir sog‘, ammo kambag‘al, boshqasi boy, sog‘, biroq oilasi notinch, xullas, hamma nimadandir nolir edi.

Bir kuni kechqurun podshohning o‘g‘li shahar ko‘chalarini aylanib yursa, bir hovlidan kimningdir gapini eshitib qolibdi. U: “Yaxshi ishladim, pulimni oldim, qornim to‘ydi, endi maza qilib uxlayman. Mendan baxtli odam yo‘q”, debdi. Podshohning o‘g‘li sevinib ketib, tezda xizmatkorlarini jo‘natibdi. Katta pul evaziga o‘sha odamning ko‘ylagini olib kelishni tayinlabdi. Xizmatkorlar hovliga kirib shahzodaning buyrug‘ini bajarmoqchi bo‘lishibdi, lekin qarashsa, haligi “baxtliman” degan odam shunchalik qashshoq ekanki, hatto egnida ko‘ylagi ham yo‘q ekan.

EY FARZAND, BILGINKI, BAXT KELUVCHI VA KETUVCHI NARSADIR. ODAM O‘ZINI BIR MUDDAT BAXTLI HISOBLASHI UCHUN BOY BO‘LISHI SHART EMAS, BALKI BOR NARSASIGA SHUKR QILSA, KIFOYA.



FOYDALI MASLAHAT

Qadim zamonda bir shahar o'rtasida katta tosh turar edi. U o'tgan-ketganlarga va aravalar yurishiga xalaqit berarkan. Shahar hokimi maslahatchilarini chaqirib, toshdan qanday qilib qutilish mumkinligini so'radi. Maslahatchilardan biri toshni maydalab tashlash kerak, dedi. Bu maslahat hokimga ma'qul kelmadi. Ikkinchi maslahatchi boshqa shaharlardan tosh yo'nuvchilarni chaqirib, uni qo'l kuchi bilan maydalashni maslahat beribdi. Bu taklif ham ma'qul kelmabdi. Chunki bu ish uchun ko'p mablag' va vaqt kerak edi. Ularning yonidan o'tib ketayotgan bir dehqon tasodifan bu gaplarni eshitib qolibdi. "Men toshdan oson va tez qutilish yo'lini bilaman", debdi u. "Bu ish uchun qancha mablag' kerak bo'ladi?" deb so'radi hokim. "Hech qanday mablag'ning keragi yo'q, faqat bitta yordamchi bersangiz bo'ldi", debdi dehqon.

Dehqon yordamchisi bilan tosh yonidan chuqur kavlay boshladi. Chuqur tayyor bo'lgach, ko'pchilik bo'lishib toshni uning ichiga ag'darishdi. Dehqon tosh ustidan tuproq tortib tekislab qo'ydi. Bu ishni ko'rib sevingan hokim dehqonni o'ziga birinchi maslahatchi qilib oldi.

EY FARZAND, BA'ZAN MUSHKUL MUAMMOLARNING YECHIMI MANA SHUNDAY ODDIY VA SODDA BO'LADI.



FIDOYILIK

Bu voqea London shahrida bo'lgan. O't o'chiruvchilardan birining katta iti bo'lib, uni Bob deb chaqirishar edi. Bob yong'in bo'layotgan joyga kirib, o't ichida qolib ketgan kichkina bolalarni qutqarishga o'rgatilgan edi.

Bir kuni Bob va o't o'chiruvchilar yonayotgan uy oldiga kelishdi. Uy alanga ichida qolgan, atrofda odamlar to'plangan edi. Odamlar ichida bir ayol uy ichida ikki yashar qizchasi qolib ketganini aytib qattiq yig'lardi. O't o'chiruvchilar Bobni uy ichiga yuborishdi. Bob alanga ichiga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Birozdan keyin kichkina qizchani ko'ylagidan tishlab olib chiqdi. Onasi qizini ko'rib juda sevindi. Bobni bag'riga bosib, boshini siladi. Lekin Bob yana uy ichiga intilar edi. Yonayotgan uyda yana kimdir bor bo'lsa kerak, deb o'ylab Bobni qo'yib yuborishdi. Bob bir zumda olov ichida yo'qoldi. Oradan biroz vaqt o'tdi. Hamma nafasini yutib Bobni kutar edi. Shu payt olov ichidan Bob otilib chiqdi. Yana bir qizchani ko'ylagidan tishlab olib kelar edi. Hamma bolani olish uchun unga intildi. Bob yaqinlashganda qarashsa, u bola deb olib chiqqan narsa kattagina qo'g'irchoq ekan. Hamma kulib yubordi. Bob esa o'zining qilgan ishidan mamnun bo'lib odamlarga qarab turardi.

**EY FARZAND, BA'ZAN JONIVORLARNING FIDOYILIGI
INSONLAR UCHUN HAVAS QILARLI DARAJADA BO'LADI.**



MAQTANCHOQ O‘RDAK

Bir ko‘lda maqtanchoq o‘rdak yashar ekan. Bir kuni u atrofidagi qurbaqalarga maqtanib shunday debdi: “Dunyoda mendek jonivor yo‘q. Chunki men suvda suzaman, ham quruqlikda yuraman, ham osmonda ucha olaman”. Buni eshitib turgan qari toshbaqa unga debdi: “Ko‘p maqtanaverma hoy o‘rdak, sen suzishni bilganing bilan baliqdek suza olmaysan. Yugurganing bilan kiyikdek yugura olmaysan. Uchganing bilan burgutdek ucha olmaysan. Sen bularning hammasini bir o‘rdakdek qila olasan, xolos”.

EY FARZAND, BILGINKI, HAR BIR ODAMNING O‘ZIGA YARASHA QOBILIYATI BO‘LADI. AQLLI ODAM SHU QOBILIYATNI RIVOJLANTIRIB, UNDAN O‘ZI VA BOSHQALAR MANFAAT KO‘RADI. AQLSIZ ESA UMR BO‘YI BOSHQALARGA TAQLID QILIB, VAQTINI ZOYE KETKAZADI.





OZOR BERMA

Saidning oyisi har yakshanba kuni somsa qilar edi. Oyisi har somsa qilganida buvisi: “Bolam, qo‘shniga ozor bermang”, der, oyisi esa: “Xo‘p bo‘ladi, oyijon”, deb bir tarelka somsani qo‘shnisinikiga chiqarib berar edi.

Bir kuni Said buvisidan: “Buvijon, nega oyim har somsa qilganlarida “Qo‘shniga ozor bermang”, deysiz?” deb so‘radi. Buvisi esa: “Oying pishirgan somsaning hidi ularning dimog‘iga kiradi, ular ham somsa yegisi kelib, ozorlanishadi. Agar somsadan bersa, yeb ko‘ngillari taskin topadi”, dedi. Shunda Said kecha maktabda sinfdoshi Ahror kattakon olmani karsillatib yeganini, boshqa bolalar esa uning olmasiga havas bilan qarashganini eslab so‘radi: “Kecha Ahror maktabda hammaning oldida olma yedi, demak u hammaga ozor beribdi-da?!”

“Albatta”, javob berdi buvisi. “Lekin u olmasini hammaga bo‘lib bersa, o‘ziga hech narsa qolmas edi-da”, dedi Said. “Unday bo‘lsa, panaroqqa o‘tib yeyish kerak”, dedi buvisi.

EY FARZAND, BILGINKI, ATROFINGDAGILARGA FAQAT QO‘L YOKI TIL BILAN OZOR BERISHDAN TASHQARI BOSHQA KO‘PGINA ISHLAR HAM BORKI, ULAR ORQALI BEXOSDAN AZIYAT YETKAZIB QO‘YISHING MUMKIN. ULARDAN BIRI HIDDIR. JAMOAT JOYLARIGABORADIGAN BO‘LSANG, YUVINIB, TOZA KIIYIMLAR KIIYIB BORISHING LOZIM.





SODIQ DO‘ST

Qadim zamonda ikki do‘st ov qilish uchun o‘rmonga boribdi. Tasodifan ularga ayiq ro‘para bo‘libdi. Do‘stlardan biri miltig‘ini tashlab, yaqin atrofdagi daraxtlardan birining ustiga chiqib olibdi. Ikkinchisi o‘zini o‘likka solib, nafas olmay yerga yotib olibdi. Ayiq yerda yotgan odamni hidlab ko‘rib, nari ketibdi. Chunki ayiqlar o‘laksa yemaydilar. Ayiq ko‘zdan g‘oyib bo‘lgach, daraxtdagi ovchi yerga tushib, do‘stining oldiga kelib hazillashibdi: “Og‘ayni, ayiq qulog‘ingga bir nima dedimi?” Do‘sti unga: “Ha, u do‘st tanlashda adashibsan, dedi”, deb javob beribdi.

EY FARZAND, BILGINKI, YAXSHI KUNINGDA DO‘STLARING KO‘P BO‘LADI. LEKIN HAQIQIY DO‘STLAR SAFARDA SINALADI.





Bir bola tog‘ bag‘ridagi o‘tloqda o‘ynab yurar edi. Bir to‘da qush cho‘chib osmonga uchdi. Bola ularni ko‘rib qah-qah otib kuldi. Shu payt unga aks-sado qaytdi. Bola hayron bo‘ldi, chunki u shu paytgacha aks-sado eshitmagan edi. U o‘tloq ichida kimdir bor, deb o‘ylab, ovoz kelgan tomonga bordi, lekin hech kimni topa olmadi. Shunda “Hoy, kimsan?” deb baqirdi. Shu zahoti “Hoy, kimsan?” deb sado qaytdi. Bolaning jahli chiqib “Sen ahmoqsan”, dedi. Sado ham unga “Sen ahmoqsan”, deb qaytardi.

Bola xafa bo‘lib uyiga qaytdi va bo‘lgan voqeani dadasiga aytib berdi. Dadasi kulib dedi: “O‘g‘lim, u yerda hech kim yo‘q, u sening ovozingning sadosi”. “Dada, sado nima?” so‘radi bola. “Bu xuddi eshik qoqqanga o‘xshaydi, qanday taqillatsang, shunday eshitasan. Sen o‘zing aytgan narsadan boshqasini eshitmagansan”.

EY FARZAND, ATROFINGDAGILARNING SENG AQANDAY MUOMALA QILISHLARINI XOHLASANG, ULARGA SHUNDAY MUOMALA QIL, CHUNKI MUOMALA ODOBI HAM XUDDI AKS-SADOGA O‘XSHAYDI.





AHMOQ DO‘ST

Qadim zamonda bir ovchi bo‘lgan ekan. U bir kuni ayiq bolasini topib olibdi va parvarishlay boshlabdi. Ayiq kundan-kunga o‘rib, unga o‘rgana boshlabdi. Ovchi qayerga borsa, uni o‘zi bilan olib yurar ekan. Odamlar unga ehtiyot bo‘lishni tayinlab, bu qilayotgan ishi xato ekanini aytishibdi. Lekin ovchi ularga: “Bu ayiq menga odamdan ham yaxshi do‘st, u meni har joyda qo‘riqlaydi”, deb javob beribdi.

Bir kuni ular birga ov qilib yurishganda ovchi charchabdi va bir daraxt soyasida bir oz mizg‘ib dam olmoqchi bo‘libdi. Ayiq esa har doimgidek uni qo‘riqlay boshlabdi. Shu payt bir pashsha uchib kelib ovchiga qo‘nibdi. Ayiq uni haydabdi. Pashsha aylanib yana qo‘nibdi. Ayiq yana haydabdi. Bu hol bir necha marotaba takrorlanib, ayiqning jahli chiqibdi. Katta bir toshni olib, ovchiga qo‘nib turgan pashshaga otibdi. Pashsha uchib ketibdi, ovchi esa til tortmay o‘libdi.

EY FARZAND, DO‘ST TANLASHDA O‘YLAB ISH QIL. O‘TGAN ODAMLAR “AHMOQ DO‘STDAN AQLLI DUSHMAN YAXSHI”, DEB BEJIZ AYTISHMAGAN.



HIYLA

Qadim zamonda bir sher bo'lgan ekan. U qarib hayvonlarni tutib yeya olmaydigan darajada kuchdan qolibdi. Ochlikdan qiynalib, oxiri bir hiyla o'ylabdi. Hayvonlar shohi sher kasal bo'ldi, deb jonivorlarga e'lon qilib, o'zi bir g'or ichiga borib yotibdi. Hayvonlar navbat bilan uni ko'rgani kela boshlashibdi. Sher esa g'orga kirgan hayvonlarni tutib yeya boshlabdi.

Bu voqea tezda o'rmonga tarqalibdi. Hayvonlar nima qilishni bilmay qolishibdi. Sherning ziyoratiga boray deyishsa, borganlardan birortasining qaytganini ko'rishmabdi, bormay desa, sher tuzalib qaytsa, uning g'azabidan qo'rqishibdi. Shunda tulki: "Men borib gap nimada ekanini bilib kelaman", debdi va g'orga qarab ketibdi. G'or og'ziga borib ichkariga mo'ralabdi, qarasa, sheʼning qariganidan yurishga ham kuchi qolmabdi. Uni ko'rgan sher: "Kel, ey tulki, oldinga kir, men bilan biroz suhbat qil", debdi. Tulki esa: "Shohim, jon deb kirardimu, lekin oyog'im ostiga qarasam, hayvonlarning g'orga kirgan izlarini ko'ryapman, qaytib chiqqan izlarini esa ko'rmayapman, shuning uchun meni ma'zur tutasiz", deb orqasiga burilib ketib qolibdi. Kelib hayvonlarga ko'rganlarini aytib, ularni ogohlantiribdi.

EY FARZAND, BILGINKI, TIRIKCHILIK SHERNI HAM TULKI QILADI. LEKIN TIRIKCHILIK UCHUN O'YLAGAN REJANG ATROFINGDAGILARGA ZIYON YETKAZMASLIGI LOZIM. AKS HOLDA, SEN HAM SHERNING KUNIGA TUSHIB QOLISHING MUMKIN.



MUSOBAQA

Bir kuni quyon o'zining chopqirligini namoyish qilish uchun toshbaqaga yugurish bo'yicha musobaqalashishni taklif qilibdi. Toshbaqa rozi bo'libdi. Marra uchun o'rmon chetidagi bir daraxtni belgilashibdi.

Musobaqa boshlanibdi. Toshbaqa shoshilmay yo'lga tushibdi, uni ko'rgan quyon rosa kulibdi va: "Men biroz mizg'ib olsam ham bo'ladi, marraga bir pasda yetib olaman", deb daraxt tagiga yonboshlabdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tibdi, quyon qattiq uxlab qolibdi. Bir payt uyg'onib qarasa, toshbaqa marraga yetay deb qolibdi. Bor kuchini yig'ib yuguribdi, lekin kech qolgan ekan. Toshbaqa undan oldin marraga yetib boribdi. Quyon qilgan ishidan afsuslanib, hayvonlar oldida rosa uyalibdi.

EY FARZAND, HAR BIR ISHNING HARAKATINI O'Z VAQTIDA QILGAN YAXSHI. FURSAT O'TGACH, QOBILIYAT HAM FOYDA BERMAydi.





HUNARNING FOYDASI

Qadimda bir boy savdogar bo'lgan ekan. Uning boyligi yetti pushtiga yetar ekan. Shunga qaramasdan u o'g'liga gilam to'qish hunarini o'rgatibdi. Bir kuni bola do'stlari bilan sayrga chiqibdi. Pul undirish ilinjida poylab yurgan qaroqchilar uni o'g'irlab, olib qochishibdi. Shahar chetidagi bir xaroba uyga olib borib qamab qo'yishibdi. Otasiga xat yuborib o'g'lining evaziga katta pul so'rashibdi. Lekin savdogar pulni berishga shoshilmabdi. Qaroqchilarning toqati toq bo'lib, bolani o'ldirmoqchi bo'lishganda bola ularga shunday debdi: "Meni o'ldirsangiz, hech narsasiz qolasiz. Agar aytganlarimni qilsangiz, mendan foyda ko'rishingiz mumkin. Menga gilam to'qish uchun ip va dastgoh olib kelinglar. Men gilam to'qiyman, siz uni bozorga olib chiqib sotasiz va yaxshigina pul ishlab olasiz".

Qaroqchilar tez orada birinchi gilamni bozorga olib chiqishibdi. Bozor aylanib yurgan savdogar o'g'lining to'qigan gilamini tanibdi va bir kishi orqali uni katta pulga sotib olibdi. Uyga kelib gilamni diqqat bilan tekshiribdi. O'g'li gilamdagi naqshlar orasiga o'zi turgan joyning xaritasini ustalik bilan joylashtirgan ekan. Savdogar do'stlarini olib o'sha joyga boribdi va o'g'lini tutqunlikdan xalos etibdi.

**EYFARZAND, HUNARBOYGAHAM, KAMBAG'ALGAHAM
BIRDEK KERAK EKAN. AGAR BOY BO'LSANG, ERTAYU
KECH BOYLIGINGNI SAQLAYSAN. AGAR HUNARMAND
BO'LSANG, HUNARING SENGASQOTADI.**



DEVONANING YORDAMI

Qadim zamonda bir oyna soluvchi bo'lgan ekan. Bir kuni u o'z foydasini ko'zlab bir devonaga debdi: "Agar borib odamlarning oynalarini sindirsang, menga yordam bergan bo'lar eding, chunki mening ishim yurishar edi".

Devona uning gapiga kirib, oyna soluvchining uyiga yugurib borib, hamma oynalarini bitta qo'ymay sindiribdi. Kechqurun uyiga kelgan oyna soluvchi buni ko'rib g'azablanibdi va devonani urisha boshlabdi.

– Nega mendan jahling chiqadi, axir oynalarni sindir, deb o'zing ayting-ku?! – debdi devona.

– Men senga boshqalarning uyidagi oynalarni sindir, shunda mening ishim ko'payadi, dedim.

– Agar boshqalarning oynasini sindirsam, ular boshqa oyna soluvchini chaqirishlari mumkin edi. Senikini sindirsam, sen hech kimni chaqirmaysan va o'zingning ishing ko'payadi, – debdi devona.

EY FARZAND, BILGINKI, BOSHQALARGA ZIYON YETKAZISH EVAZIGA TIRIKCHILIK QILISHNING OQIBATI MANA SHUNDAY BO'LADI. ✓



Qadim zamonda bir shaharda donishmand yashagan ekan. Turli joylardan uning oldiga maslahat uchun odamlar kelishar ekan. U odamlarga qimmatli maslahatlar berar ekan. Uning ovozası uzoq-uzoq o'lkalarga yetibdi.

Boshqa bir shaharda donishmandligi bilan dong taratgan bir odamning qulog'iga ham bu xabarlar yetib boribdi. U odamlar orasida o'z obro'sini yo'qotib qo'yishdan qo'rqib, o'zining o'sha donishmanddan ustunligini isbotlamoqchi bo'libdi va shunday reja tuzibdi. "Bir kapalakni tutib, ikki kaftim orasiga olib, hammaning oldida donishmandning oldiga boraman. "Kaftim orasida nima bor?" deb so'rayman. Albatta, u kapalak, deb javob beradi. Shunda men: "U tirikmi yoki o'likmi?" deb so'rayman. Agar u tirik desa, men kaftimni bildirmasdan siqib, kapalakni o'ldiraman. Shunda kaftimni ochganimda hamma kapalakning tirik emasligini ko'radi. Agarda u kapalakni o'lik desa, men kaftimni ochib, uni uchirib yuboraman, hamma kapalakning tirik ekanini ko'radi, shunda barcha uning xato qilganini sezadi", deb o'ylabdi.

U aytganini qilib, kapalakni olib donishmandning oldiga boribdi va "Qo'limdagi nima?" deb so'rabdi. "Kapalak", deb javob beribdi donishmand. "U tirikmi yoki o'likmi?" deb so'rabdi kelgan donishmand. "Bu endi senga bog'liq", deb javob beribdi donishmand uning ko'ziga qarab. ✓

EY FARZAND, BILGINKI, O'ZINGNING KUCHINGGA ORTIQCHA BAHO BERISHING SENI HAM MANA SHUNDAY UYALTIRIB QO'YISHI MUMKIN. DONISHMANDLAR: "O'ZINGNI ER BILSANG, O'ZGANI SHER BIL", DEB BEJIZ AYTISHMAGAN.



MEHR OQIBATI

Qadim zamonda ikki aka-uka yashar ekan. Akasi oilali, ukasi esa bo'ydoq ekan. Ularning otasi o'limidan oldin hamma narsasini ikkiga bo'lib, hovlining o'rtasidan devor uribdi. Devorning ikki tomoniga o'ra qazib, ombor qilibdi va donni ikkiga bo'lib beribdi. Oradan ko'p o'tmay, ota olamdan o'tibdi.

Bir kuni kechasi akasi ukasi haqida o'ylab: "Mening tirikchiligim yaxshi, xotinim va bolalarim menga yordam berishadi. Ukam esa yolg'iz, unga men yordam berishim kerak", deb omboridagi dondan olib ukasining doniga qo'shib qo'yibdi.

Ertasiga ukasi kechasi yotib o'ylab: "Men yolg'iz bo'lsam, menga shuncha donning nima keragi bor?! Akamga don ko'proq kerak", deb o'z omboridagi dondan olib akasinikiga qo'shib qo'yibdi.

Shu tariqa tirikchilik uchun nima topishsa, bir-birlariga yashirinch qo'shib qo'yishar ekan. Ularning bunday saxiyliklaridan ro'zg'orlariga baraka kirib, umr bo'yi muhtojlik nima ekanini bilishmabdi. X

EY FARZAND, SAXIY ODAM RUHAN TETIK VA SOG'LOM BO'LADI. BIROVGA QILGAN YAXSHILIGIDAN KAYFIYATI KO'TARILIB, OVQATINI YAQINLARI BILAN BAHAM KO'RGANI UCHUN SOG'LOM VA UMRI BOQIY BO'LADI.



AQL KUCHI

Qadim zamonda bir yengilmas pahlavon bo'lgan ekan. U o'z kuchini namoyish qilishni yaxshi ko'rar va bu bilan juda faxrlanar ekan. Bir kuni u shu atrofdagi tog'lardan biriga bir darvesh ko'chib kelganini va qo'l jangi bo'yicha yengilmas ekanini eshitibdi. Uni ko'rish uchun qidirib toqqa boribdi va o'sha darveshni topibdi. Qarasa, u kichginagina chol ekan. Chol kulbasi oldidagi o'tloqda mashq qilayotgan ekan.

– Odamlar ulug' jangchi deb maqtashayotgan senmisan?! – debdi pahlavon uni nazarga ilmay. – Ular sen haqingda oshirib yuborishibdi, sen anavi yoningdagi xarsang toshni joyidan ham qimirlata olmaysan, men esa uni olib xohlagan tomonimga otib yuborishim mumkin.

– Sen odamlarning tashqi ko'rinishiga qarab baho berma, – debdi xotirjamlik bilan chol. – Men har kuni daraga tushib, u yerdan mana shunday toshni olib chiqaman-da, mashqlarim so'nggida uni boshim bilan urib mayda-mayda qilaman. Sening baxtingga bugun mashqlarim hali oxiriga yetmadi. Agar men bilan kurashmoqchi bo'lsang, bu ishni sen qilib ko'r. Chunki shunday arzimagan mashqni ham bajara olmaydigan odam bilan men kurashib o'tirmayman.

Bu gaplarni eshitib pahlavonning jahli chiqib ketibdi va yugurib borib bor kuchi bilan boshini toshga urib, hushidan ketib yiqilibdi. Chol pahlavonni davolab oyoqqa qo'yibdi va unga qo'l kurashi sirlarini o'rgatibdi. ✱

EY FARZAND, BILGINKI, RAQIBNI FAQAT KUCH BILAN YENGIB BO'LMAYDI. JANGDA AQLNI ISHLATISH KUCH JIHATDAN SENDAN USTUN BO'LGANLARNI HAM YENGADI.



TOMOSHABINLAR

Devor tagida hurpayib turgan mushuk bolasiga qarab bir kuchuk tinmay hurar edi. Mushuk bolasi qo'rqqanidan g'ujanak bo'lib olgandi. Maktabdan qaytayotgan ikki bola buni ko'rib "Nima bo'lar ekan?" deb tomosha qilib turishdi. Uyining oynasidan buni ko'rib turgan bir ayol chiqib itni haydab yubordi va bolalarga qarab:

– Uyat emasmi? – dedi.

– Nega uyat bo'ladi?! Biz hech narsa qilganimiz yo'q, – deyishdi bolalar.

– Ana shunisi uyat-da, – dedi ayol.

EY FARZAND, BEFARQLIK DEGAN SHUNDAY ILLAT BORKI, U TUFAYLI KO'PCHILIKKA ZIYON YETADI. SEN UNDAYLARDAN BO'LMA.





QUVONCH

– Menda meni xursand qiladigan narsa bor. Mana, qarang, lentam qanday chiroyli, – dedi Aziza.

– Menda ham bor, mana rangli qalamlarim, ular juda chiroyli, – dedi Olim.

– Menda esa xursand bo‘ladigan ko‘ylagim bor, u yap-yangi, – dedi Jasur.

– Sen nega jimsan, Akbar, seni xursand qiladigan hech narsang yo‘qmi? – so‘rashdi bolalar.

– Bor, hovlimizda rang-barang gullar ochilib yotibdi, men ularni ko‘rib rosa xursand bo‘laman, – dedi Akbar.

– E, shu ham xursand qiladigan narsa ekanmi? Gullar hamma joyda bor, – kulishdi bolalar.

– Men yana qalin qor yoqqanda tomlarni ko‘rib xursand bo‘lganman, ularning bir tomoni moviy bo‘lsa, quyosh botayotgan tomoni pushti rangda edi.

– Tomlarni ko‘rib ham xursand bo‘larkanmi? E, uning xursand bo‘ladigan hech narsasi yo‘q, shuning uchun bularni o‘ylab topyapti, – deb kulishdi Jasur va Olim.

Shunda Saida o‘ylab turib:

– Balki uning xursand bo‘ladigan narsalari biznikidan ko‘pdir. Chunki Akbar ularni hamma joydan topa oladi, – dedi.


EY FARZAND, BILGINKI, O‘ZIDAGI YAXSHI NARSALARGA QUVONUVCILAR JUDA KO‘P, LEKIN ATROFDAGI GO‘ZALLIKNI KO‘RIB QUVONA OLISH HAMMAGA HAM NASIB ETAYERMAYDI.



HAYOT YUKI

Bir odamning birgina eshagi bo'lib, u ertadan kechgacha tinmay mehnatqilar ekan. Yuk tashib ketayotganda o'sha atrofda o'tlab yurgan boshqa eshaklarni ko'rib, ularga havasi kelar va o'zining hayotidan norozi bo'lar ekan. Bir kuni odatdagidek charchab kelib uxlab qolibdi va tush ko'ribdi. Tushida cho'lda bir qancha eshaklar bilan ketayotgan emish. Hammalarining ustiga bittadan poya ortib qo'yilgan ekan. Qarasa, bu yerda ham unga eng uzun daraxtni bog'lab qo'yishgan emish. Eshakning jahli chiqib, chetroqqa o'tibdi-da, poyani tushirib, uchidan bir qismini sindirib tashlabdi. Qolgan qismini yana ustiga ortib, yo'lida davom etibdi. Yuki yengillashgani sababli yurish ham ancha osonlashib, oldinga o'tib ketibdi. Bir payt qarasa, oldidan katta jarlik chiqibdi. Jarlikning narigi tomoni esa ko'm-ko'k o'tloq ekan. Jarlikdan o'tishga hech qanday ko'priq yo'q emish. Qarasa, atrofidagi eshaklar ustilarida olib kelgan poyalarni jarlik ustiga tashlab undan narigi tomonga o'tib ketar, ular o'tgan zahoti poya jarlikka tushib ketar edi. Eshak qarasa, uning poyasi jarlikning narigi tomoniga yetmas ekan. Qilib qo'ygan ishidan afsuslanib, alam bilan qattiq hangrab yuboribdi. O'z ovoziidan uyg'onib ketgan eshak ko'rgani tush ekanini bilib sevinibdi.

EY FARZAND, MASHAQQATLI HALOL MEHNAT ODAMNI YAXSHILIKKA YETKAZADI. AKSINCHA, YENGIL-YELPI HAYOT ESA YAXSHILIKDAN MAHRUM QILADI.



TESHIK CHELAK XIZMATI

Qadim zamonda suv tashuvchi bir yigit bo'lgan ekan. U obkashining ikki chetiga ilingan chelaklarda suv tashir ekan. Chelaklardan birining tagi teshik bo'lib, manzilga yetguncha suvning yarmi to'kilib borar ekan. Butun chelak o'z vazifasini to'la-to'kis bajarayotganidan mag'rurlanar, teshik chelak esa ishining yarminigina bajara olayotganidan uyalib, xijolat chekar ekan.

Bir kuni teshik chelak egasiga debdi: "Men sendan uzr so'ramoqchiman, olgan suvingning yarminigina yetkaza olaman". Suv tashuvchi yigit unga javoban: "Seni ko'tarib ketadigan tomonimdagi gullarni ko'rganmisan? Men ularni ataylab shu tomonga ekkanman. Har safar suv tashiganimda sen ularni sug'orib ketasan. Men necha martalab xotinimga shu gullardan guldastalar sovg'a qilganman. Buning uchun senga rahmat aytaman", debdi.

**EY FARZAND, TADBIRKOR ODAM HATTO TESIHK
CHELAKDAN HAM O'ZI UCHUN FOYDA OLA BILADI.**






BU YAXSHI

Qadim zamonda Afrikada bir podshoh bo'lib, uning do'sti bor ekan. Do'stining bir odati bor ekanki, u nima ish sodir bo'lsa, yaxshi bo'lsa ham, yomon bo'lsa ham, "Bu yaxshi!" der ekan.

Podshoh ovga chiqqan paytida do'stini o'zi bilan olib borar, u shohga miltig'ini o'qlab berib turar ekan. Bir kuni miltiqni noto'g'ri o'qlagani sababli podshoh undan otganida bosh barmog'i uzilib ketibdi. Buni ko'rib podshohning do'sti har doimgidek "Bu yaxshi!" debdi. Og'riqdan g'azablangan podshoh: "Yo'q, bu yaxshi emas", deb do'stini qamab qo'yishni buyuribdi.

Oradan bir yil o'tib, podshoh yana ov qilib yurganida odamxo'r qabila a'zolari uni o'g'irlab ketibdi. Podshohni ustunga bog'lab, o'tin hozirlay boshlashibdi. Odamxo'rlardan biri tasodifan podshohning bitta barmog'i yo'qligini ko'rib qolibdi. Ular irimqilib nogironlarni yeyishmas ekan. Shu sababli podshohni qo'yib yuborishibdi. Podshoh odamxo'rlardan qutilishiga sabab bo'lgan voqeani eslab, qilgan ishidan uyalib, tezda zindonga boribdi. Do'stini zindondan chiqarib olibdi va unga bo'lgan voqeani aytib beribdi. Do'sti uning gaplarini tinglab "Bu yaxshi!" debdi. Podshoh hayron bo'lib so'rabdi: "Nega yaxshi bo'ladi, axir men seni bir yil zindonda saqladim-ku?!" "Yaxshiligi shundaki, agar men zindonda bo'lmaganimda siz bilan ovga borar va odamxo'rlarga yem bo'lar edim".

EY FARZAND, BILGINKI, HAR BIR ISHDA BIR YAXSHILIK BO'LADI. BA'ZIDA BIZ YAXSHILIK DEB O'YLAGAN NARSANING KETIDAN YOMONLIK VA BA'ZAN BIZ YOMONLIK DEB O'YLAGAN NARSANING KETIDAN YAXSHILIK KELISHI MUMKIN.



ME'YOR YAXSHI

Bir kuni bir mulla masjidga namozdan oldin va'z-nasihat qilish uchun kelibdi. Qarasa, masjidda faqat bir kishi o'tirgan ekan. "Bir kishi uchun nasihat qilsammikan, yo'qmi?" deb o'ylabdi va haligi kishidan so'rabdi: "Masjidda sizdan boshqa hech kim yo'q ekan, ma'ruzani boshlasammikan yoki yo'qmi?" Haligi odam javob beribdi: "Men bir oddiy otboqarman. Agar otxonaga kirganimda u yerdagi otlar qochib ketib, faqat birgina ot qolgan bo'lsa ham, men unga ovqat beraman", debdi. Uning bu gapidan mulla ta'sirlanib ketib, ma'ruza qila boshlabdi. Mulla shu taqlidda ikki soat gapiribdi. Nihoyat, o'zining qilgan chiroyli ma'ruzasidan xursand bo'lib, maqtov eshitish niyatida otboqardan so'rabdi: "Qalay, ma'ruzam sizga yoqdimi?" Otboqar javob beribdi: "Men boya aytganimdek, otxonaga kelib, boshqa otlar qochib ketib, bitta ot qolgan bo'lsa ham, unga yem beraman, lekin qolgan otlarning yemini ham unga bermayman".

EY FARZAND, BILGINKI, HAMMA NARSADA ME'YOR YAXSHIDIR. ME'YORIDAN OSHIB KETGAN YAXSHI NARSA HAM YOMONDIR.





ROSTGO‘YLIK MANZILI

Qadim zamonda suv, shamol va rostgo‘ylik do‘st bo‘lishgan ekan. Bir kuni suv bilan rostgo‘ylik shamoldan so‘rashibdi: “Ey shamol, sen juda tez uchasan. Agar seni topmoqchi bo‘lsak, qayerdan qidiraylik?” Shamol: “Meni tog‘lar orasidan topasiz”, debdi. Keyin shamol bilan rostgo‘ylik suvdan so‘rashibdi: “Sen juda tez oqasan, agar seni qidirsak, qayerdan topamiz?” “Meni abadiy muzliklardan izlang”, debdi suv. Keyin shamol va suv rostgo‘ylikdan so‘rashibdi: “Rostgo‘ylik, seni-chi, agar qidirsak, qayerdan topamiz?” Rostgo‘ylik debdi: “Men kimning yonida bo‘lsam, undan ajralmayman. Meni tark etganlarni yomon ko‘raman. Agar meni yo‘qotgan qayta topmoqchi bo‘lsa, yuragining tubidan izlasin, lekin u yerga yetish juda mushkul”.

**EY FARZAND, BILGINKI, ROSTGO‘YLIGINI YO‘QOTGAN
ODAMNING QALBI TOG‘LAR ORASIDAY CHUQUR VA
ABADIY MUZLIKLARDAY SOVUQ BO‘LADI.**



ODAMLAR FIKRI

Qadim zamonda bir ota va o'g'il shahar ko'chalarining birida ketishar edi. Ota eshak mingan, o'g'il esa ularning ketidan borar edi. Ularni ko'rgan bir kishi: "Anavilarni qaranglar, otasi eshakni minib olibdi, o'g'li esa holdan toyib ularga yeta olmayapti", debdi. Yo'lovchining gapi otaga ta'sir qilib, eshakdan tushibdi va o'g'lini o'tqazib, yo'lida davom etibdi. Yo'lda uchragan boshqa bir yo'lovchi esa: "Anavi bolani qaranglar, otasini piyoda yurgizib, o'zi eshakni minib olibdi", debdi. Bu gap o'g'ilga ta'sir qilib, otasidan eshakka minishni so'rabdi. Ota-bola eshakni minib ketayotganlarini ko'rgan odamlar: "Anavi noinsoflarni qaranglar, ikkalasi bitta eshakni minib olibdi", deyishibdi. Endi ota-bola eshakdan tushib, uni piyoda yetaklab keta boshlabdi. Ularni ko'rgan boshqa bir yo'lovchi: "Anavilarni qaranglar, ikkisi piyoda, eshakni yetaklab ketyapti", debdi.

EY FARZAND, BILGINKI, NIMA ISH QILSANG HAM, ISHINGDAN AYB TOPUVCHILAR UCHRAYDI. SHUNING UCHUN DOIM O'Z SHAROITINGGA QARAB ISH TUT.



CHEKSIZLIK

Qadim zamonda bir podshoh boʻlib, u doim cheksizlik haqida oʻylar, uning qanday ekanini hech tushunib yeta olmas ekan.

Bir kuni shu shaharga bir donishmand tashrif buyuribdi. Shoh uning ovozasini eshitib, saroyga taklif qilibdi va oʻzini qiynayotgan savolni beribdi. Donishmand unga shunday javob beribdi: “Uzoq bir oʻlkada Adamant togʻi bor. U togʻning eni yetti chaqirim, balandligi ham yetti chaqirim. Har yuz yilda oʻsha togʻga bir kichkina qushcha uchib keladi va tumshugʻini shu togʻning toshiga bir marta charxlab ketadi. Qachon qushcha tumshugʻini charxlab oʻsha togʻni tugatsa, ana oʻshanda cheksizlikning bir soniyasi oʻtgan boʻladi”.

EY FARZAND, CHEKSIZLIK TUSHUNCHASI OLDIDA BIZNING HAYOTIMIZ BIR YONIB OʻCHGAN CHIROQ KABIDIR. SHUNING UCHUN BU UMRNI KERAKSIZ NARSALARGA SARF QILMA.



KITOBLAR MAZMUNI

Qadim zamonda bir shahzoda bo'lgan ekan. Unga otasidan katta kutubxona meros bo'lib qolgan ekan. Shahzoda ilmga chanqoq bo'lgani uchun kitoblarda nimalar yozilganini bilmoqchi bo'lib, shu kutubxonaning xodimi bo'lgan olimni chaqiribdi va: "Bu kitoblar nima haqida?" deb so'rabdi. Olim: "Bu kitoblarda insoniyat tarixi bitilgan", debdi. Shunda shoh olimga mana shu kitoblarda yozilgan ma'lumotlarni jamlab kelishni buyuribdi. Olim bir necha yillar mehnat qilibdi. Bir kuni saroyga 500 kitob ortilgan aravani olib kirishibdi. Olim kutubxonadagi kitoblarning mazmunini mana shu 500 kitobga joylashtirgan ekan. Shahzoda bu paytda ancha ulg'ayib qolgan ekan. Saroydagi ishlarning ko'pligidan bu kitoblarni o'qib chiqishga fursati yetmasligini anglabdi va shu 500 kitob mazmunini jamlab kelishni buyuribdi. Olim yana bir necha yillar mehnat qilib, shohning huzuriga 50 ta kitob olib kelibdi. Bu paytga kelib, shoh ancha qarib qolgani sababli ushbu kitoblarni o'qib chiqishga fursati yetmasligini anglab, mana shu 50 ta kitob mazmunini bitta kitobga jamlab kelishni buyuribdi. Olim yana bir necha yil mehnat qilib shohning buyrug'ini bajaribdi. Lekin bu paytda shoh o'lim to'shagida yotgan ekan. Kitobni hatto ochib qaray olmabdi. Shunda olimga kitobning mazmunini qisqa qilib aytib berishni iltimos qilibdi. Olim unga: "Inson dunyoga yaxshilik qilish uchun kelar ekan", debdi.

EY FARZAND, INSON DUNYOGA FAQAT YAXSHI ISHLARNI QILISH UCHUN KELADI. INSONNING QADR-QIMMATI UNING HUSNI, BOYLIIGI YOKI MARTABASIGA QARAB BELGILANMAYDI, BALKI YAXSHI ISHLARNI KO'P YOKI KAM QILGANIGA QARAB BELGILANADI.



USTOZ HAQI

Qadim zamonda bir donishmand olimdan ilm olish uchun kelgan talabalar:

– Ustoz, olim bo‘lmasingizdan avval nima qilar edingiz? – deb so‘radilar.

– Har kuni ertalab ustozimning xonadoniga ro‘zg‘or uchun zarur bo‘ladigan bir kunlik suvni tashib berar edim, – deb javob berdi ustoz.

– Olim bo‘lganingizdan keyin nima qilyapsiz?

– Har kuni ertalab ustozimning xonadoniga ro‘zg‘or uchun zarur bo‘ladigan bir kunlik suvni tashib beraman.

– Unday bo‘lsa, hayotingizda hech narsa o‘zgarmabdi-da, – deyishibdi shogirdlar.

– Yo‘q, siz xato o‘ylayapsiz, avval men bu ishni shunchaki, ustozim aytgani uchun qilar edim. Endi esa hech kim aytmasa ham, bu amalni mehr bilan bajaraman. Aks holda, bugun siz mening huzurimga kelmagan bo‘lar edingiz, – debdi ustoz.

**EY FARZAND, SENG A BIR HARF O‘RGATGAN USTOZING
OLDIDAGI QARZINGNI PUL YOKI MOL-DUNYO BILAN
UZA OLMAYSAN. “USTOZ OTANGDEK ULUG‘”, DEYDI
XALQIMIZ. OTA-ONA OLDIDAGI QARZIMIZNI PUL BILAN
HISOB-KITOB QILMAYMIZ-KU!**





HAYOT QIMMATI

Qadim zamonda boy-badavlat ikki qo'shni bo'lib, ahil va totuv yashar ekanlar. Ular o'zaro kelishib kun ko'rsalar-da, aslida ikkisi har xil odamlar ekan. Biri saxiy bo'lib, mahallasidagi qiynalgan odamlarga yordam berar, o'zi yashayotgan hududning obodonchiligiga e'tibor qaratib, insonlar uchun foydali ishlarni qilar ekan. Ikkinchisi esa uning aksi bo'lib, hech kim bilan ishi bo'lmas, mahalladoshlari bilan ortiqcha bordi-keldi qilmas ekan. Shu sababli ularning tashvishlaridan ham bexabar ekan.

Oradan yillar o'tibdi. Ikki qo'shni qarib, bir kunda olamdan o'tibdi. Qarindoshlar va mahalla ahli ularni oxirgi manzilga kuzatib, qabristonga ham qo'shnilarni yonma-yon qo'yishibdi. Saxiy odamning yaxshiliklarini eslab, bir lavh yasashibdi va unga *"O'lim kelishi bilan tugagan hayot hech narsaga arzimaydigan hayotdir"*, deb yozishibdi. So'ngra lavhni qayerga o'rnatish ustida o'ylab qolishibdi. Ikki qo'shnining ahil yashagani hamda o'limlarining ham bir kunda kelgani hurmatidan uni ikkala qabrning o'rtasiga o'rnatishibdi. Chetdan qaraganda, bu lavh ikkala qabr egasiga tegishliday ko'rina boshlabdi. Aslida ham shunday edi, chunki ulardan birining yaxshiliklarini o'lganidan keyin ham eslab yurishdi. Ikkinchisini esa unutib yuborishdi, negaki uning eslaydigan hech qanday yaxshiligi yo'q edi.

EY FARZAND, SEN HALI YOSHSAN, BUTUN HAYOTING OLDINDA. QAYSI KASB EGASI BO'LISHINGDAN QAT'I NAZAR, JAMIYATGA FOYDA KELTIRADIGAN ODAM BO'LGIN. BIR KUN KELIB DUNYODAN O'TSANG, SENING HAYOTING QILGAN YAXSHILIKLARINGDA DAVOM ETADI.




ILMNING OMONATI

Qadim zamonda bir usta temirchi bo'lib, bu hunarni ipidan-ignasigacha bilar ekan. Bundan tashqari, u gullarni juda sevar va ustaxonasining oldida g'aroyib gullarni parvarish qilar ekan. Temirchi qarib kuchdan qola boshlaganda hunarini o'rgatish uchun shogird olishini e'lon qilibdi. Uning oldiga uchta yigit kelib, shogirdlikka tushmoqchi ekanliklarini aytibdi. Temirchi yigitlardan bittasini tanlab olish uchun ularni sinab ko'rmoqchi bo'libdi. Har biriga kichkina xaltachalarda o'zi parvarish qilayotgan gullarning urug'laridan beribdi va: "Men muhim ish bilan uzoq safarga ketyapman, qaytgunimcha mana shu urug'larni ehtiyot qilib saqlanglar. Urug'larni saqlab menga qaytargan yigitga temirchilik hunarini o'rgataman", debdi.

Birinchi yigit urug'larni uyiga olib borib, temir sandiqqa solib qo'yibdi. U urug'larni mana shunday saqlamoqchi bo'libdi. Ikkinchi yigit gulchining do'koniga borib, urug'larni sotibdi va temirchi qaytganida xuddi shunday urug'larni sotib olishini do'kondorga tayinlabdi. Uchinchi yigit esa urug'larni hovlisiga va uyi atrofiga ekib, ulardan o'sib chiqqan gullarni parvarishlay boshlabdi.

Oradan ancha vaqt o'tib, temirchi safardan qaytibdi va uchchala yigitni huzuriga chaqiribdi. Birinchi yigit temir sandiqda turgan urug'larni olib boribdi. Temirchi ularni ko'rib: "Sen bu urug'larni o'ldiribsan, endi ular hech narsaga yaramaydi. Demak, sen hunarga ham xuddi shunday munosabatda bo'lasan. Sening o'rgangan hunaringdan odamlarga hech qanday naf bo'lmaydi", debdi.

Ikkinchi yigit gulchilik do'konidan sotib olgan urug'larini olib kelib ko'rsatibdi. Temirchi ularni ko'rib: "Bular men senga bergan urug'lar emas, sen ularni sotib yuborib, bugun boshqa urug' olib kelibsan. Demak, sen o'rgangan hunaringni odamlarga faqat pul evaziga berar ekansan", debdi.



Uchinchi yigit ekan gullarining urug'larini yig'ib olib boribdi. Temirchi ularni ko'rib: "Mana shular men bergan urug'lar, sen ularni hatto ko'paytirib kelibsan. Demak, sening o'rgangan hunaringdan hamma bahramand bo'ladi", deb shogirdlikka shu yigitni tanlabdi.

EY FARZAND, SEN O'SIB-ULG'AYISH BAROBARI-DA ILM VA HUNAR O'RGAN HAMDA ATROFINGDAGILARNI ULARNING MANFAATIDAN BAHRAMAND ET. MANA SHUNDA XALQ SENI HAQIQIY HUNARMAND DEB HURMAT QILADI.





OLAM KO'ZGUSI

Qadim zamonda Hindistonda olovga sig'inuvchilarning eski tashlandiq ibodatxonasi bo'lib, uning ichki devori ko'zgu bilan qoplangan ekan. Bir daydi it ovqat topish ilinjida tasodifan shu yerga kirib qolibdi. Atrofiga qarab bir talay itlarni ko'ribdi va ularga tishlarini ko'rsatib irillabdi. Ular ham unga qarab irillashibdi. It qo'rqib ibodatxonadan qochib chiqibdi. Shu atrofda yursa-da, qaytib u yerga kirmabdi. Sababi u yerni badjahl itlarning makoni deb tushunibdi.

Boshqa bir it ham ovqat izlab tasodifan shu ibodatxonaga kirib qolibdi. Atrofida bir talay itlarni ko'rib, quvonganidan dumini likillatib vovullabdi. Uning tovushi ibodatxona ichida aks-sado beribdi va it bu yer o'zi kabi ajoyib itlarning makoni ekan, deb u yerdan chiqib ketibdi.

EY FARZAND, BIZNI O'RAB TURGAN OLAM KO'ZGUGA O'XSHAYDI. BIZ UNDA HAR KUNI HAR YERDA O'ZIMIZNI KO'RAMIZ. ATROFIMIZDAGILARNING BIZGA QILAYOTGAN MUOMALALARI BIZNING ULARGA KO'RSATAYOTGAN MUNOSABATIMIZNING O'ZIDIR.



VAQTNING NARXI

Olti yashar Saidning dadasi ishdan kech charchab qaytdi. Said uning oldiga kelib:

- Dada, siz qancha oylik olasiz? – deb so‘radi.
- Nega so‘rayapsan? – deb, o‘g‘lining savoliga savol qaytardi dadasi.
- Ayta qoling, masalan, bir soatda qancha pul topasiz?
- Bir soatda... taxminan ming so‘m, – dedi dadasi.
- Dada, menga uch yuz so‘m bering, – so‘radi Said.
- Nima qilasan?
- Bera qoling, menga juda kerak, – yalindi o‘g‘li.
- Bekorchi narsalarga hadeb pul so‘rayverma, bor, uxla, – dedi dadasi jahl bilan.

Said indamay xonasiga kirib ketdi. O‘g‘li ketgach, ota biroz hovuridan tushdi. “Saidning pul so‘raydigan odati yo‘q edi, qiziq, unga pul nimaga kerak bo‘lib qoldi ekan?” deb o‘yladi va o‘g‘lining xonasiga kirdi.

- Said, uxlayotganing yo‘qmi, o‘g‘lim? – so‘radi dadasi.
 - Yo‘q dada, uxlayotganim yo‘q, – javob berdi o‘g‘li.
 - Mana senga uch yuz so‘m, faqat nima olmoqchi ekaningni ayt.
- Said xursand bo‘lib o‘rnidan turdi va yostig‘ining tagidan bir talay yuz so‘mliklarni chiqarib, dadasidan olgan pulni ularga qo‘shdi.
- Bu pullarni qayerdan olding, puling bor ekan, nega mendan yana pul so‘rading?
 - Bu pullarni ovqatlanishga bergansiz, men ularni yig‘ayotgan edim, uch yuz so‘m yetmayotgan edi. Mana endi bo‘ldi. Dadajon, mana shu ming so‘mni oling. Iltimos, ertaga ishdan bir soat vaqtliroq kelib, men bilan futbol o‘ynang, – deb yalindi Said.

EY FARZAND, SEN HAM TEZDA ULG‘AYIB KATTA BO‘LASAN, SENING HAM FARZANDLARING BO‘LADI. SHUNI BILGINKI, UMR QISQA, ISHXONADA HAR DOIM SENING O‘RNINGGA

**BOSHQA ODAM TOPILADI, LEKIN FARZANDLARING UCHUN
SENING O'RNINGNI HECH KIM BOSA OLMAYDI.**



FIKR IFODASI

Qadim zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Bir kuni u tush ko'ribdi. Tushida og'zidagi tishlari bitta-bitta to'kilib tushibdi. Podshoh tezda tush ta'birini aytuvchini chaqirib, unga tushini aytib beribdi. Ta'birchi uning so'zlarini tinglab: "Shohim, bardam bo'ling, tez orada siz yaqinlaringizdan ayrilar ekansiz", debdi. Uning bunday sovuq xabaridan g'azablangan shoh ta'birchini zindonga solishni buyuribdi. So'ng boshqa ta'birchini chaqirtiribdi. Unga ham ko'rgan tushini aytib beribdi. Ta'birchi shohning gaplarini tinglab shunday debdi: "Shohim, siz qarindoshlar ichida eng uzoq umr ko'ruvchisi bo'lar ekansiz", debdi. Bu gap shohga yoqib, u ta'birchiga sovg'a-salomlar beribdi.

EY FARZAND, BIR GAPNI GAPIRISHDAN AVVAL O'YLAB KO'R, CHUNKI BITTA FIKRNI YUQORIDAGI KABI IKKI XIL HOLATDA IFODALASH MUMKIN.





ILMNING BOSHI

Qadim zamonda uchta sarkarda oralarida kim kuchliroq ekanini sinab ko'rmoqchi bo'libdi. Buning uchun ular shogirdlarini chaqirishibdi. Har bir sarkarda shogirdlariga navbat bilan ustoziga toshlar otib turishni buyuribdi. Birinchi sarkarda uchib kelayotgan toshlarni ustalik bilan qaytaribdi. Ikkinchi sarkarda ustalik bilan toshlarga chap beribdi. Uchinchi sarkardaga esa birorta ham shogirdi tosh otmabdi.

EY FARZAND, BILGINKI, ILMNING BOSHI ODOB VA AXLOQDIR. ULAR BO'LMAGAN JOYDA HECH QANDAY ILMU HUNAR NAF BERMAYDI.





XAT


Bir kuni pochta xodimi egasiga yetib bormagan xatlarni orqaga qaytarish uchun saralab o'tirib, g'alati xatni ko'rib qoldi. Konvertning "Kimga" degan joyiga katta harflar bilan "Yaratganga" deb yozib qo'yilgan ekan. Xatni orqaga qaytarib yuboray, desa, manzil ko'rsatilmagan, faqatgina "Azizadan" deb yozib qo'yilibdi. Yozuviga qaraganda, yosh bolaning xati ekani bilinib turar edi. Pochta xodimi uzoq o'ylab, oxiri xatni ochishga jazm qildi. Xatdagi yozuvlar xuddi suvga tushib ketganday yoyilib ketgan edi. Unda shunday yozilgan ekan:

"Assalomu alaykum, ey Tangri! Men hozir bir o'zim uyda yolg'iz o'tiribman. Ko'chada qor yog'yapti. Dadam ishda, oyim esa kasalxonada. Bir haftadan keyin mening tug'ilgan kunim. Men bu kunni bir yil kutdim, sababi oyim va dadam bu kunda menga istagan narsamni sovg'a qilishadi. Men ulardan mushukcha so'ramoqchi edim. Lekin endi menga mushukcha kerak emas. Oyim kasal bo'lib qoldilar. Dadamning aytishicha, shifokorlar qo'llaridan kelgan hamma narsani qilishibdi. "Endi butun umid Tangridan", deyishibdi. Shuning uchun Senga xat yozyapman. Sendan iltimos, tug'ilgan kunimda oyim uyga kelsinlar, menga boshqa narsa kerak emas..."

Pochta xodimi xatni o'qib bo'lguncha rosa yig'ladi, uning ko'z yoshlari xatdagi yozuvni yana ham yoyib yubordi.

Kechqurun ishdan uyiga qaytayotganda xatni yo'lidagi anhorga oqizib yubordi va sekingina: "Qizning xatini O'zing qabul qil", deb qo'ydi.

**EY FARZAND, OTA-ONANGNING AYTGANLARINI
BAJARMAY, ULARNI XAFA QILAYOTGANINGDA ATROFINGDA
MANA SHUNDAY BOLALAR HAM BORLIGINI ESLAB QO'Y.**



JAMIYAT RISHTASI

Bir kuni bir bog'da o't-o'lanlar va dala gullari orasida atirgul ochildi. Atrofidagi barcha o'simliklar uning go'zalligi va hididan hayratga tushib, atirgulni olqishlay boshlashdi. Atirgul bu maqtovlarni eshitib g'ururlandi va hech kimni nazariga ilmay qo'ydi.

Bir kuni atirgul tush ko'ribdi. Tushida bir o'zi cho'lda o'sayotgan emish. Atrofida na bir o't-o'lan, na bir daraxt bor ekan. Quyosh ayovsiz qizdirarkan. Issiqdan rosa chanqabdi, lekin suv ko'rinmas emish. Tez orada so'lib, gul barglari qovjiray boshlabdi. Shunda bog'dagi soya solib turadigan daraxtni, uni shamol va issiqdan asraydigan atrofidagi o't-o'lanlarni, yonginasidan jildirab oqib turadigan ariqchani eslabdi. Ularga bu yaxshiliklari uchun biror marta ham minnatdorchilik bildirmaganini eslab qattiq uyalibdi. Ularsiz bir o'zi halok bo'lishini tushunib dahshatga tushibdi. Shu payt qattiqshamol turib, qum uyumlarini atirgulning ustiga tashlabdi. Atirgulning tanasi qumning og'irligini ko'tara olmay sinib ketay debdi. Qo'rquvdan ovozinig boricha baqirib yuboribdi va o'z ovozidan uyg'onib ketibdi. Ko'zini ochib atrofida unga hayron bo'lib qarab turgan o'tlarga va daraxtlarga birinchi marta jilmayib qarabdi hamda ularni cho'chitib yuborgani uchun uzr so'rabdi.

**EY FARZAND, JAMIYATDA YASHAYOTGAN INSONLAR
TURLI SABABLARGA KO'RA O'ZARO BOG'LANIB
TURADILAR. INSONNING BIR O'ZI HAMMA ISHNI BAJARA
OLMAYDI, SHUNING UCHUN U ATROFIDAGILARNING
YORDAMIGA MUHTOJ BO'LADI. BU SOHADA BIROVGA
YAXSHILIK QILMAYDIGAN ODAM O'ZGALAR
YAXSHILIKLARINING HAM QADRIGA YETMAYDI.**



TABIAT ZANJIRI

Tog'larning qor va muz bilan qoplangan bag'rida kunlardan bir kuni irmoq tug'ildi. Tug'ildi-yu jildirab pastga intildi. Yo'lda o'ziga o'xshagan tiniq irmoqchalarni uchratib, ular bilan birlashib daryo hosil qildi. Daryo borgan sari kuch olib, yo'lida uchragan tosh va daraxt parchalarini ag'darib surib ketar edi. Mana shu yerda u birinchi bor insonni uchratdi. Odam daryoga mehr va zavq bilan qaradi, uning suvlariga iliq qo'lini botirdi. Daryo uning qo'llarida mehrni, kuchni, irodani his qildi. Insonni zaminning egasi ekanligini sezdi. Bundan keyin yo'lida uchragan har bir inson uning suvlaridan ichar yoki maza qilib cho'milar edi. Daryo esa bundan xursand bo'lib, oldinga intilardi. U yo'lida ildamlagan sari insonning kuchini his qilib borardi. Chunki odamzod uni tegirmonning g'ildiragini aylantirishga, boshqa o'zandan oqishga majbur qilar, yo'lini to'g'onlar bilan to'sar edi. Daryo esa yo'lidagi barcha to'siqlarni yengib oldinga intilardi.


Daryo yo'lida borgan sari yomon odamlarni ko'proq uchrata boshlabdi, ular o'z manfaatlari uchun daryoni ifloslantirar, unga har xil chiqindilar tashlar edilar. Daryo esa chiqindilarni chetga chiqarib, tobora oldinga intilar, o'simliklar va jonivorlarni xursand qilishga shoshilar edi.

Zavod va fabrikalarga to'la bo'lgan shahardan daryo butunlay kasal bo'lib chiqdi. Uning suvlarining rangi o'zgargan, moylar bilan qorishgan, zaharli moddalar bilan zaharlangan, o'zi chiqindilarga to'la edi. Daryoning hayotdan umidi uzildi. U juda sekinlik bilan shahardan chiqib, o'rmonga qarab oqdi. Yo'lda uchragan jonivorlar endi uning suvidan ichmas, odamlar unga jirkanib qarashar edi. Daryo shu zaylda oqib borar ekan, sof paytidagi birinchi bor uchratgan yo'lovchini ko'rdi. Odam unga achinib, g'amgin qarab turar edi. Daryo "Yaxshiliklarim evaziga odamlar meni qanday ahvolga solganlarini ko'rib



qo'y!" degandek uning oldida to'xtadi. Endi uning oqishga ham holi yo'q, yo'lini butunlay to'sib qo'ygan chiqindilarni yorib o'tishga ham majoli yetmas edi. Yo'lovchining unga rahmi keldi, qayerdandir bolalarni topib keldi. Ular uzun ilgaklar bilan daryoni chiqindilardan tozalay boshlashdi. Rahmdil kishi esa ketmon bilan daryo tubidagi og'ir chiqindilarni chiqarib ola boshladi. Shunda daryo tug'ilgan va bolaligi o'tgan tog' bag'rilarini esladi. Bu kishi va bolalarning unga yordam berishlariga ishonch paydo bo'ldi. Unda yana yashashga intilish uyg'ondi, chunki u hali juda ko'plarga kerakligini bilar edi.

EY FARZAND, INSON, HAVO, SUV, YER, O'SIMLIK VA JONIVORLAR TABIATDA BIR BUTUN ZANJIRNI TASHKIL QILADILAR. BU ZANJIRNING HALQALARI BIRI IKKINCHISISIZ MAVJUD BO'LA OLMAYDI. AGAR BITTA HALQA UZILSA, BOSHQALARIGA HAM SHIKAST YETADI. SHUNING UCHUN ULARNI O'Z SOG'LIG'IMIZNI ASRAGANDEK AVAYLASHIMIZ LOZIM.



TANISHUV

Bir ayol bolasini bog'chaga olib ketayotgan edi. Farzandi unga yo'l-yo'lakay gapirib borardi.

– Oyi, anavi yerda men Said bilan kalamushni ko'rib qoldim. Biz unga tosh otgan edik, u o'z tilida bizni urishib berdi.

– Qanday qilib? – so'radi oyisi.

– Pi-pi-pi, deb, – javob berdi o'g'li.

– Nega urishib berdi, deb o'ylayapsan, balki u sizlar bilan ta-nishgandir?!

O'g'li biroz jim turdi va dedi:

– Oyi, siz ko'chada sizga tosh otganlar bilan tanishasizmi?!

EY FARZAND, YOMON MUOMALADA BO'LGAN ODAMNING BOSHQA TILDA BO'LSA HAM, SENG NIMA DEGANINI BILIB OLIH MUSHKUL EMAS.





YOMONLIK DAN SAQLANISH

Tulki bolasi o'rmonda aylanib yurib, tikanli butaga duch kelibdi. Butaning tikanlari tulkichaning hamma yog'iga ilashib olibdi. U xunob bo'lib, butaga qarab baqiraveribdi. Buni daraxtda o'tirgan ukki ko'rib turgan ekan. U tulkichaga debdi:

– Hoy tulkivoy, nega hadeb butaga qarab baqiryapsan?

Tulki esa:

– Ko'r-maysanmi, har safar shu yerdan o'tganimda u menga tikanlarini ilashtirib yuboradi. Endi men ularni kechgacha tozalashim kerak, – debdi. Ukki unga:

– Sen butaga qarab baqirganing bilan hech qanday foyda chiqmaydi. Har safar tikanlarni yig'ib olib, hamma joyga tarqatyapsan. O'sha yerlardan yangi tikanli butalar o'sib chiqadi, ular esa boshqa jonivorlarga chirmasha boshlaydi, – debdi.

– Unda nima qilay? – so'rabdi tulkicha.

– Sen yaxshisi keyingi safar bu yerni aylanib o't, shunda tikanli butadan salomat bo'lasan, – debdi ukki.

EY FARZAND, GAR SEN BIROR YOMONLIK BILAN KURASHA OLMASANG, UNDAN UZOQROQ YUR, SHUNDA UNING YOMONLIGIDAN SALOMAT BO'LASAN, AKS HOLDA ASABING BUZILIB, BOSHQALARNING HAM JIG'IGA TEGASAN VA YOMONLIKNING TARQALISHIGA SABABCHI BO'LIB QOLASAN.



IRIM

Qadim zamonda bir podshoh navkarlari bilan ovga otlanibdi. Yo'lda ketishayotsa, oldilaridan bir xunuk odam chiqib qolibdi. Shoh uni ko'rib behuzur bo'libdi va: "Bu badbashara odamni uchratganimiz ovimizning yaxshi bo'lmasligiga bir belgidir", deb haligi odamni zindonga tashlashni buyuribdi. Keyin yo'lida davom etibdi. Shu kuni shohning ovi yurishib, juda yaxshi bo'libdi. Ovdan qaytgach, podshoh haligi odamni keltirishni buyuribdi. Unga:

– Men ovga ketayotganimda seni uchratib, endi ov yaxshi bo'lmaydi, deb gumon qildim. Lekin ov juda yaxshi bo'ldi. Shuning uchun seni qo'yib yuboraman, – debdi va ketishidan oldin:

– Sen o'zi nima maqsadda yurgan eding? – deb so'rabdi.

– Men ertalab o'zim va oilam uchun bir burda non topish niyatida uydan chiqqan edim. Yo'lda seni uchratdim. Mana ko'rib turganingdek, kech bo'ldi, lekin men ham, oilam ham bugun och qoldik, mening omadim kelmadi, – debdi.

EY FARZAND, BIROR ISHNI REJALASHTIRSANG, IRIM QILIB, FOL OCHMA. ASTOYDIL HARAKAT QILSANG, ISHING O'NGIDAN KELADI.



DO‘STLIKNING BAHOSI

Bu voqea Vetnamda bo‘lgan edi. Jang paytida yetimxona yoniga bomba kelib tushdi. Yetimxonaning tarbiyachilari va ikki bola halok bo‘ldi. Bir necha bola esa og‘ir yarador bo‘ldi. Yaradorlar orasida bir qizchaning ahvoli ayniqsa og‘ir edi, u ko‘p qon yo‘qotgandi. Agar unga tezlik bilan qon quyilmasa, halok bo‘lishi mumkin edi. Yaqin atrofda shifokorlar bo‘lmagani sababli elchixonadan chet ellik shifokorlarni chaqirishga to‘g‘ri keldi. Ular tezlik bilan qizchaning qon guruhini aniqlashdi. Aksiga olib, shu yerdagilarning birortasining qon guruhi qizchanikiga to‘g‘ri kelmas ekan. Shifokorlarning bolalardan yordam so‘rashdan boshqa ilojlari qolmadi. Ular yarim vetnamcha, yarim inglizcha qilib bolalarga maqsadlarini zo‘rg‘a tushuntirishdi va qon berishga kim rozi ekanini so‘rashdi. Barcha bolalar jim bo‘lib shifokorga tikilib qoldi, lekin hech kim qo‘lini ko‘tarmadi. Shu payt bir bolakay sekingina qo‘lini ko‘tardi-yu tushirdi, keyin yana ko‘tardi. Shifokorlar unga minnatdorchilik bildirib, tezlik bilan yotqizib, tomiridan asta qon ola boshlashdi. Bir mahal bolaning ko‘zidan yosh oqa boshladi. Hamshira uning ahvolini so‘ragan edi, yig‘idan to‘xtadi, lekin birozdan keyin yana yig‘lay boshladi. Hamshira xavotirda: “Muolajani to‘xtataymi?” deb imoishora bilan so‘radi. Bolakay “Yo‘q”, dedi, lekin yig‘isini to‘xtata olmas edi. Shu payt vetnamlik hamshira kelib qoldi. U bolakay bilan bir necha og‘iz gaplashdi. Bolaning yuzi yorishib, yig‘idan to‘xtadi. Chet ellik shifokorlar gap nimada ekanini bilmoqchi bo‘lishdi. Shunda vetnamlik hamshira: “Bu bolalar sizlarni to‘g‘ri tushunmabdi. Qizchaning hayotini saqlab qolish uchun hamma qonni berish kerak deb o‘ylashibdi. Bu bolakay esa rozi bo‘lib, endi o‘lyapman deb o‘ylagan ekan”, debdi. Shunda shifokorlar: “Unday bo‘lsa,



nega rozi bo‘libdi?” deb so‘rashdi. Hamshira bolakay bilan o‘z tilida gaplashdi, so‘ng davom etdi: “Men unga siz bergan savolni bersam, “Biz do‘stmiz”, dedi”.

EY FARZAND, CHIN DO‘STLIKNI KO‘RIB QO‘Y. O‘ZLARI YAQINLARI MEHRIGA ZOR BO‘LSA-DA, MEHR BERA OLGAN, MEHR U YOQDA TURSIN, JON BERISHGA-DA ROZI BO‘LGAN BU JASUR BOLA HAQIDA NIMA DEYSAN?!






HAYOT UCHUN KURASH

Qadim zamonda bir kishi bo'lgan ekan. Kunlarning birida uning eshagi tasodifan hovlidagi quduqqa tushib ketibdi. U qattiq hangray boshlabdi. Eshaging ovozi eshitgan egasi kelib qarasa, u quduq ichida emish. Uni chiqarib olish esa anchagina mushkul ekan. Shunda odam o'zicha o'ylab: "Eshagim qarib qolgan, baribir yangisini olmoqchi edim. Quduq ham qurigan, boshqasini kavlatmoqchiydim. Kel, bir yo'la ikki ishni bajaray", debdi va belkurak olib quduqni ko'ma boshlabdi. Buni ko'rib gap nimada ekanini tushungan eshak bor kuchi bilan hangrabdi, lekin egasi unga parvo qilmabdi. Birozdan keyin eshakning ovozi chiqmay qolibdi. Bu paytda egasi quduqni ko'mib bo'lay deb qolgan ekan. Qarasa, eshak bir sakrab quduqdan chiqibdi. Keyin bilsa, eshak ustiga tushayotgan tuproqlarni silkib ustidan tushirib, oyog'i bilan tepkilab turgan ekan.

EY FARZAND, HAYOTING DAVOMIDA SEN HAM QIYINCHILIKLARGA UCHRASHING MUMKIN. SHUNDAY PAYTLARDA O'ZINGNI GO'YO QUDUQQA TUSHIB QOLGANDEK HIS QILASAN. HECH QAYERDAN YORDAM KELMAGANDA HAM HAR BIR USTINGGA TUSHGAN TASHVISHNI MANA SHU ESHAK KABI SILKIB TUSHIRIB, DOIM OLDINGA INTILISHING KERAK.



DUNYOQARASH

Bir kuni katta ko'l chetida yashovchi qurbaqa aylanib ko'lmakdagi botqoqlikka kelib qolibdi. U yerda yashovchi qurbaqa undan qayerdan kelganini so'rabdi. Kelgan qurbaqa:

– Ko'ldan, – deb javob beribdi.

– U yer kattami?

– Ha, juda katta, – javob beribdi mehmon qurbaqa.

– Mana shu botqoqlikdan ham kattami? – ishonmay so'rabdi botqoq qurbaqasi.

– Ha, shunday kattaki, bunday botqoqliklarning bir nechtasini yutib yuboradi, – debdi mehmon qurbaqa.

Umri davomida shu botqoqlikdan boshqa joyni ko'rmagan qurbaqa ko'lni tasavvur qila olmabdi va jahl bilan:

– Sen yolg'onchisan, shunday katta botqoqlikdan ham katta botqoqlikning bo'lishi mumkin emas. Ket, bu yerdan, – debdi.

EY FARZAND, AGAR BIROR NARSA HAQIDA BILIMING KAM BO'LSA, UNI RAD QILISHGA SHOSHILMA. BU HAQDA ATROFINGDAGILARNING FIKRIGA QULOQ SOL.



OMAD CHARXPALAGI

Qadim zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Uning hech nimadan kamchiligi bo'lmay, baxtli hayot kechirarkan. Bir kuni bu shohning mamlakatida qurg'oqchilik boshlanibdi. Natijada, ocharchilik yuzaga kelibdi. Bundan foydalangan qo'shni mamlakatning podshohi shaharni bosib olibdi va podshohning yaqinlarini qatl qilibdi. Podshohning o'zi bazo'r qochib qutulibdi. U yoshlikda birga o'sgan boshqa bir podshohning mamlakati tomon yo'lga tushibdi. Yo'lda uni qaroqchilar tutib olib, qul qilib sotib yuborishibdi.

Uch yil qul bo'lib mehnat qilgan podshoh oxiri qochib do'stining yurtiga kelibdi. Lekin uni do'stining huzuriga kiritishmabdi, chunki ustidagi juldur kiyimni ko'rib shohning do'sti ekaniga hech kim ishonmabdi.

Shoh kiyim sotib olish uchun shu shaharda bir yil mehnat qilibdi. Oxiri yangi kiyimlarini kiyib do'stining huzuriga kiribdi va boshidan o'tgan voqealarni aytib beribdi. Do'sti uning gaplarini eshitib bo'lgach, xizmatkorlarini chaqirib: "Bu odamga yuz bosh qo'y beringlar, borib ularni boqsin", debdi. Do'stining bunday muomalasidan podshoh qattiq xafa bo'libdi, lekin ilojsizligidan qo'ylarni boqishni lozim ko'ribdi.

Bir haftadan so'ng kechasi qo'tonga bo'ri oralab, hamma qo'ylarni bo'g'izlab ketibdi. Podshoh boshini egib do'stining oldiga kelib, voqeani aytib beribdi. Shunda do'sti: "Unga ellik bosh qo'y beringlar, borib ularni boqsin", debdi. Yana bir hafta o'tgach, qo'ylar serkaning orqasidan ergashib, hammasi jarga qulab tushib halok bo'libdi. Podshoh yana do'stining oldiga kelib, bo'lgan voqeani aytib beribdi. Do'sti podshohga yigirma besh bosh qo'y berishni va ularni boqishni buyuribdi. Bu qo'ylarga hech narsa qilmabdi.

Bir qancha vaqt o'tgach, podshoh do'stining oldiga kelib: "Bergan qo'ylaring ko'payib mingtaga yetdi, keyingi yilga



ular ikki baravar ortadi”, debdi. Buni eshitib do‘sti quvonibdi va podshohga debdi: “Endi qo‘y boqishni qo‘y. Yonimdagi viloyatga podshoh bo‘lib, hammasini boshidan boshlaysan”, debdi. Podshoh uning gaplaridan hayron bo‘lib so‘rabdi: “Nega shu ishni kelgan paytimda qilmading?” Do‘sti: “Men hayotingning omadsiz qismi o‘tib ketishini kutdim. Agar viloyatni senga kelgan kuning berganimda undan asar ham qolmas edi. Mana endi hayotingning yorqin tarafi boshlandi. Qo‘ylar taqdiringning o‘lchovi edi, xolos”, debdi.

EY FARZAND, HAYOTDA HAR XIL KUNLAR KELADI. OMADSIZ KUNLARNI SABR BILAN YENGIB O‘TSANG, ALBATTA, OMADLI KUNLARGA YETASAN. XALQIMIZ: “OYNING O‘N BESHI QORONG‘U BO‘LSA, O‘N BESHI YORUG‘”, DEB BEJIZ AYTMAGAN.





BAXT SIRI

Bir savdogar o'g'lini bir donishmandning uyiga baxtning sirini bilib kelish uchun yuboribdi. O'g'il aytilgan joyga borib qarasa, donishmand juda chiroyli qilib bezatilgan katta qasrda yashar ekan. Yigit uning oldiga kirib maqsadini aytibdi, lekin donishmand ishi ko'pligini gapirib, ikki soatdan keyin kelishni so'rabdi. Bu vaqt ichida unga qasrni va uning bog'larini aylanib chiqishni taklif etibdi. Yigit rozi bo'lib ketayotganda donishmand unga bir shart qo'yibdi. Qo'lga bir qoshiqcha berib, ichiga ikki tomchi yog' tomizibdi va ikki soat ichida yog'ni to'kib yubormaslikni tayinlabdi.

Oradan ikki soat o'tib, yigit donishmandning oldiga kelibdi. Donishmand undan: "Xo'sh, senga qasrim yoqdimi, uning xonalarini, u yerdagi qimmatbaho gilamlarni, ajoyib bog'imni, undagi turli-tuman o'simliklarni ko'rdingmi?" deb so'rabdi. Yigit xijolat bo'lib, hech narsani ko'rmaganini, butun xayoli faqat qoshiqdagi yog'da bo'lganini aytibdi. Donishmand: "Bunaqasi ketmaydi, men bilan suhbatlashish uchun butun qasrimni va undagi ajoyibotlarni ko'rib kelgan bo'lishing kerak", deb yana ikki soat muhlat beribdi.

Ikki soatdan keyin yigit donishmandning oldiga qaytib kelibdi. Donishmand bergan savollarning hammasiga javob beribdi. Shunda donishmand: "Qoshig'ingdagi yog' qani?" deb so'rabdi. Yigit qarasa, qoshig'ida bir tomchi ham yog' qolmagan ekan. Shunda donishmand: "O'g'lim, baxtning siri mana shu, ajoyib qasrni tomosha qilish, lekin yog'ni to'kib yubormaslikdadir", debdi.

**EY FARZAND, TIRIKCHILIK DEB HAYOT NE'MATLARI
VA AJOYIBOTLARIDAN BEBAHRA QOLMA. AKSINCHA,
ROHATLARGA VA XURSANDCHILIKKA G'ARQ BO'LIB,
TIRIKCHILIGINGNI UNUTMA.**



Qadim zamonda bir yigit yashagan ekan. Bir kuni u eshigi tagiga urug' ekibdi. Oradan bir necha kun o'tib, urug' unib chiqibdi. Yigit unga vaqti-vaqti bilan suv quyib turibdi. Lekin bir qancha vaqt o'tgandan so'ng qarasa, ekkan narsasi tikan ekan. Buni ko'rgan mahalladoshlari yigitga tikanni yulib tashlashni tavsiya qilibdi. Lekin yigit ularning gaplariga e'tibor bermabdi. Tikan esa kundan-kun o'sib shoxlay boshlabdi. O'tgan-ketganlarning kiyimlariga tirmashib, qo'llariga kirib aziyat yetkazibdi. Yigit esa bu narsalarga parvo etmay yuraveribdi. Endi tikanga suv quymasa ham, u yerdan quvvat olib o'saveribdi. Bora-bora odamlar uning eshigi tagiga kelmaydigan bo'lib qolibdi.

Bu orada yigit farzandli bo'libdi. Bolalar ham tikanni ko'rib, unga ko'nikib o'sa boshlabdi. Bu narsa o'sha yurt hukmdorining qulog'iga yetib, yigitni huzuriga chaqirtiribdi va tikanni olib tashlashni buyuribdi. Yigit podshohga tikanni ildizi bilan qo'porib tashlashga va'da berib kelibdi, lekin dangasaligi tufayli bu ishni paysalga solib yuribdi.

Oradan yana yillar o'tibdi. Endi yigitning yoshi ulg'ayib, nabirali bo'libdi. Bir kuni endi yurishni boshlagan nabirasi yurib borib, o'sha tikanga yiqilibdi, hamma joyini tilib qonatibdi. Buni ko'rgan o'g'li otasiga jahl bilan tikanni qo'porib tashlashni taklif qilibdi. Ota-bola ishga tushishibdi. Lekin tikanning ildizlari yerga mahkam o'rnashib qolgan ekan. Ota tez orada charchab holdan toyibdi, lekin tikanning hali yarmini ham qo'pora olishmabdi.

Ular bir necha kun urinib, oxiri tikanni olib tashlashibdi. Ota-bola xotirjam bo'lishibdi. Ammo oradan bir necha kun o'tgach, yomg'ir yog'ib o'tibdi va tikan qo'porilgan joydan yana mayda tikanlar nish urib chiqa boshlabdi. Ota ularni darrov yulib tashlabdi, lekin bu hol qayta-qayta takrorlanaverib, chol



umrining oxirigacha tikanlarni yulish bilan ovora bo‘libdi.

Otasi dunyodan o‘tgandan keyin esa bu ish o‘g‘liga qolibdi. O‘g‘il sal e’tiborsiz bo‘lsa, tikanlar birpasda shox otib ulg‘aya boshlar ekan. U endi bu ishga ulg‘ayib qolgan farzandlarini ham jalb etibdi.

Mahalla ahli esa ularga “ota-bola tikanchilar” deb laqab qo‘yishibdi va tikan bo‘lmasa ham, eski odatlari bo‘yicha ularning eshiklari oldidan o‘tishmas ekan.

EY FARZAND, BU RIVOYATDAGI TIKAN ASLIDA YOMON ODATDIR. AGAR SEN YOSHLIGINGDA BIROR YOMON ODATGA O‘RGANSANG, KUCH-QUVVATING BORIDA UNDAN QUTULISHGA HARAKAT QIL, AKS HOLDA BU YOMONLIK FARZANDLARING VA NABIRALARINGGA MEROS BO‘LIB QOLADI.





USTOZNING O‘KINCHI

Ko‘zgako‘ringan bir rassomning shogirdlari o‘z ustozlarining oxirgi chizgan rasmining oldida yig‘lab turganini ko‘rib hayron bo‘lishibdi va:


– Ustoz, nima sababdan yig‘layapsiz? – deb so‘rashibdi. Shunda rassom:

– Men oxirgi chizgan ishimdan hech ayb topa olmayapman, – deb javob beribdi.

– Bu yaxshi emasmi? – so‘rashibdi shogirdlar.

– Yo‘q, bu mening iste’dodimning so‘nayotganidan darak beryapti, – debdi rassom.

EY FARZAND, BILGINKI, HAR BIR USTANING QILGAN ISHI, GARCHI ATROFDAGILARGA MUKAMMAL BO‘LIB KO‘RINSA-DA, UNING O‘ZI KAMCHILIGINI KO‘RAD. KEYINGI ISHLARIDA SHU NUQSONLARNI BARTARAF QILISHGA HARAKAT QILADI. BU UNING O‘Z USTIDA ISHLAYOTGANINI BILDIRADI.





YOMONLIKNING OQIBATI


Qadim zamonda bir qishloqning aholisi o'ta qashshoq bo'lish bilan birga ziqnaligi va badjahlligi bilan atrofga dong taratgan ekan. Bir kuni dunyo kezib yurgan darveshlardan biri tasodifan shu qishloqqa kelib qolibdi. Uni ko'rgan odamlar to'planib, darveshni hayday boshlashibdi. Darvesh ularga hech qanday ziyoni tegmasligini aytsa ham qishloq ahli uni o'g'ri deb qarg'ab haqorat qilibdi. Shunda darvesh ularga:

– Men ketaman, lekin ketishimdan oldin sizlarga bir gapim bor. Men hozirgina yoningizdagi qishloqdan chiqdim. U yerning aholisi marhamat ko'rsatib, menga turli noz-ne'matlar uzatishdi. Men darveshman, menga xaltamdagi bir burda qotgan non kifoya qiladi. Shuning uchun ularning tuhfarini qabul qilmay o'zlariga qaytardim. Siz nima deb o'ylaysiz, ular bu tuhfalarni endi nima qilishadi? – debdi.

– Olib borib bolalariga berishadi va o'zlari yeyishadi, – deyishibdi odamlar. Shunda darvesh:

– Unday bo'lsa, men sizning ham haqorat-u, qarg'ishlaringizni qabul qilmayman, ular o'zingizga siylov, – debdi.

**EY FARZAND, HAYOTING DAVOMIDA
ATROFINGDAGILARNI QARG'ASH VA HAQORATLASHDAN
SAQLAN. CHUNKI BUNDAY YOMON SO'ZLARNING
OQIBATI (YOMONLIGI) O'ZINGNI HAM TINCH
QO'YMAYDI.**



FOYDALI GAP

Stol ustida bir nechta oq qog‘oz va qalam bor edi. Bir kishi kelib qalam bilan qog‘ozga nimalarnidir yozdi va chiqib ketdi. U ketgach, qog‘oz qalamdan o‘pkalab:


– Men oppoqqina, top-toza qog‘oz edim. Sen esa mening betimni iflos qilding, – debdi. Shunda qalam unga muloyimlik bilan:

– Men seni iflos qilmadim, aksincha, haligi odamning qimmatli fikrlarini senga muhrlab qo‘ydim. Sen bu bilan toza qog‘ozlardan ustun turasan, – debdi.

Oradan ancha yillar o‘tibdi, stol ustini chang bosib, qog‘ozlar sarg‘ayibdi. Bir kuni bir kishi kelib, stol ustini tartibga sola boshlabdi. Sarg‘ayib ketgan qog‘ozlarni to‘plab chiqib ketmoqchi bo‘lganda haligi qog‘ozdagi yozuvga ko‘zi tushib, uni o‘qib chiqibdi va avaylab stol javoniga solib qo‘yibdi.

EY FARZAND, BILGINKI, BIROVGA FOYDALI GAP AYTA OLADIGAN ODAM HECH QANDAY MASLAHAT BERA OLMAYDIGAN ODAMDAN QADRLIROQDIR.





SABRNING MUKOFOTI

O'tloqdagi barg ustida o'tirgan qurtcha atrofidagi uchib yurgan kapalaklarga, sakrayotgan chigirtkalarga va yugurib yurgan chumolilarga havas bilan qarar edi. U o'zining sekin harakat qiladigan qurt ekanidan xijolat chekar, lekin hech kimga hasad qilmay, o'z ishini bajarar edi. Uning ishi ipak to'qib o'ziga pilla yasash edi. Qurtcha vazifasini hafsala bilan bajarar, chunki u har kimning o'z burchi bor, shu ishni mukammal qilish lozim deb tushunar edi. Mana u pillasini to'qib bo'ldi. Pillasining ichiga kirib, oxirgi teshikni ham yopdi. "Endi nima qilar ekanman?" deb o'ylay boshlaganida uni uyqu eltib, qattiq uxlab qoldi. Bir qancha vaqtdan so'ng u uyg'ondi. Endi u o'zini avvalgiday emas, boshqacha his qilar edi. Bir amallab pillani yorib tashqariga chiqdi. Yorug' joyda o'ziga qarab hayron qoldi. Chunki u endi qurtcha emas, go'zal kapalak edi. Quyosh nurlarida tovlanayotgan rang-barang qanotlariga atrofdagi hammaning havasi kelayotgandek edi. Kapalakka aylangan qurtcha buni o'zining mehnati va sabri uchun berilgan mukofot deb tushundi va gulzor bo'ylab uchib ketdi.

EY FARZAND, MASHAQQATLI MEHNAT VA SABRNING, ALBATTA, MUKOFOTI BO'LADI. BOSHQALARGA HASAD QILIB, O'Z ISHIDA SUSTKASHLIK QILISH ESA HECH QANDAY YAXSHILIKKA OLIB KELMAYDI.



KIBR

Bir sartaroshning qimmatbaho ustarasi bor edi. Yoz kunlari-ning birida sartarosh qandaydir ish bilan ustaxonadan chiqib ketganda ustara zerikibdi va aylanib kelmoqchi bo'libdi. Oynadan hatlab ko'chaga tushibdi. Ustaraning tig'i quyosh nurida yaltirab atrofdagilarning ko'zini qamashtiribdi. Hamma unga mahliyo bo'lib tikilibdi. Ustara buni sezib g'ururlanibdi va o'zicha: "Men shunday ajoyib husnim bilan qandaydir kishilarning soqollarini qirtishlashim kerakmi? Endi men ustaxonaga qaytmayman va bu ishni qilmayman, chunki bu menga munosib emas", deb o'ylabdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tib, kuz kelibdi. Yomg'irli, nam kunlar boshlanibdi. Bir kuni ertalab ustara odatdagidek pichog'ini qinidan chiqaribdi, lekin ne ko'z bilan ko'rsinki, pichog'i zanglab, tig'i o'tmaslashib ketibdi. Ustara o'z ahvoliga yig'lab: "Usta meni qanday asrab-avaylar, tig'imni charxlab, zanglashga qo'ymas edi. Mening ishimdan hamma xursand va minnatdor edi, odamlarga foydam tegardi. Endi kimga ham keragim bor?! Chiqindi uyumida yotgan, zanglagan temirdan farqim yo'q", debdi.

EY FARZAND, BILGINKI, KIBRLANISH INSONNI ADASHTIRADI. AGAR SENING BIROR ISHGA QOBILIYATING BO'LSA, TINMAY MEHNAT QILIB, UNI RIVOJLANTIRISHING KERAK. AKS HOLDA, HAR QANDAY IQTIDOR USTARA KABI ZANG BOSIB YO'Q BO'LIB KETADI.



MUNDARIJA

Zulmatning chirogʻi.....	3
Donishmandning oʻlimi.....	5
Birovning aybi.....	7
Aqlli elchi.....	9
Ibrat koʻzi.....	10
Omad kaliti.....	12
Shukr qil.....	14
Yomon maslahat.....	16
Beminnat non.....	18
Ilmning boshi odob.....	20
Iskandar Zulqarnayn.....	22
Haqiqiy olim.....	24
Ibratli jazo.....	26
Bogʻbon va nihol.....	28
Foydali ish.....	30
Ikki xil baxt.....	32
Baxilning yomonligi.....	34
Sinov.....	36
Chin doʻst.....	38
Harakatda barakat.....	40
Yaxshi niyat.....	42
Umidsizlik ofati.....	46
Ilmsizlik zulmati.....	48
Baxtli odam.....	50
Foydali maslahat.....	52
Fidoyilik.....	54
Maqtanchoq oʻrdak.....	56
Ozor berma.....	58
Chin doʻst.....	60
Aks-sado.....	62
Ahmoq doʻst.....	64
Hiyla.....	66
Musobaqa.....	68

Hunarning foydasi.....	70
Devonaning yordami.....	72
Hasad.....	74
Mehr-oqibat.....	76
Aql kuchi.....	78
Tomoshabinlar.....	80
Quvonch.....	82
Hayot yuki.....	84
Teshik chelak xizmati.....	86
Buyaxshi.....	88
Me'yor yaxshi.....	90
Rostgo'ylik manzili.....	92
Odamlar fikri.....	94
Cheksizlik.....	96
Kitoblar mazmuni.....	98
Ustoz haqi.....	100
Hayot qimmati.....	102
Ilmning omonati.....	104
Olam ko'zgusi.....	108
Vaqtning narxi.....	110
Fikr ifodasi.....	112
Ilmning boshi.....	114
Xat.....	116
Jamiyat rishtasi.....	118
Tabiat zanjiri.....	120
Tanishuv.....	124
Yomonlikdan saqlanish.....	126
Irim.....	128
Do'stlikning bahosi.....	130
Hayot uchun kurash.....	134
Dunyoqarash.....	136
Omad charxpalagi.....	138
Baxt siri.....	142
Yomonlik urug'i.....	144
Ustozning o'kinchi.....	148
Yomonlikning oqibati.....	150
Foydali gap.....	152
Sabrning mukofoti.....	154
Kibr.....	156

TARBIYA KITOB

Ibratli rivoyat va hikmatlar

Birinchi kitob

Nashrga tayyorlovchi:

Abdumurod Tilavov

Muharrir:

Adiba Hamro qizi

Texnik muharrir:

Rustamjon Ortiqov

Musahhih:

Suxrobjon Avvalboyev

Noshir:

Akmal Najmiddinov

Nashriyot litsenziyasi: AI № 221, 16.11.12.

Bosishga ruxsat etildi: 10.04.17.

Bichimi: 70x100 $\frac{1}{16}$ Ofset bosma. "Times" garniturası.

Shartli bosma tabog'i: 10,0. Nashriyot bosma tabog'i: 5,25.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma: № 169.

Bahosi kelishilgan narxda.

Nashriyot manzili:

"Yurist-media markazi" nashriyoti,

Toshkent shahri, Otchopar ko'chasi, 82-uy

Tel.: 212-47-79, 230-04-74

E-mail: yurist_media@mail.ru

Bosmaxona manzili:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa

ijodiy uyida chop etildi.

100128, Toshkent, Labzak ko'chasi, 86.

Bolalar tarbiyasida kitob mutolaasining o'rni beqiyos. Sharq rivoyat va hikoyatlarining sodda bayonidan tashkil topgan mazkur kitob oila davrasida o'qiladigan, farzandlarimizning yanada kamol topishida yordam beradigan mo'jaz sovg'adir.



ISBN 978-9943-387-91-1



9 789943 387911